Modal fe'llarning so'roq va inkor shakllari yordamchi fe'l yordamisiz yasaladi. So'roq gapda predmetdan oldin modal fe'l keladi, inkor shakli esa zarracha yordamida yasaladi. *emas*, modal fe'lidan keyin qo'yiladi. **Istisno** hisoblanadi .

<b>mumkin siz suzish?</b>	-	<b>Suzishingiz</b>	<b>mumkinmi?</b>
<b>may I ket?</b>	—	<b>Borsam</b>	<b>maylimi?</b>
<b>Kerak biz maslahatlashish shifokormi?</b>		<b>Shifokorga murojaat qilishimiz kerakmi?</b>	
<b>Do siz o'qish kerak ko'p?</b>	-	<b>Ko'p o'qish kerakmi?</b>	<b>(tashqari)</b>

*I suzishni bilmaydi.* - *Men suzishni bilmayman.*  
*Siz bo'lmasligi kerak yig'lamoq.* “*Siz yig'lamasligingiz kerak.*  
*Siz tushuntirish shart emas tafsilotlar.* “*Tafsilotlarni tushuntirishga hojat yo'q.*  
*(tashqari)*

Modal fe'llar qisqartirilgan inkor shakllari bilan tavsiflanadi:

*mumkin emas = qila olmaydi, bo'lmasligi kerak = qilmaslik kerak, = bo'lmasligi kerak qilmaslik kerak, bo'lmasligi kerak = kerak emas* va hokazo.

Modal fe'llar va faqat ikkita zamonda qo'llaniladi - in *hozirgi oddiy* (*mumkin, may*) va ichida *o'tgan oddiy* (*mumkin va mumkin*).

Aksariyat modal fe'llar bir nechta ma'noga ega. Ular so'zlovchi nuqtai nazaridan harakatni zarur, mumkin, kerakli, shubhali, muammoli yoki majburiy deb ko'rsatishi mumkin. Modal fe'llar ish-harakatning o'zini emas, balki unga munosabatni ifodalagani uchun buyruq mayli shaklida qo'llanilmaydi, ya'ni harakat motivini ifodalay olmaydi. Bir qator shakllar (masalan, infinitiv, kesim, gerund) yo'qligi sababli bunday fe'llar ham etarli emas deb ataladi.

Chet tillarini o'qitishda asosiy e'tibor bugunda til o'rganuvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda qaratilmoqda. Buning natijasida grammatik birliklar va qoidalarni ham an'anaviy usulda emas, balki kommunikativ yondashuvga asoslangan holda o'qitish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda ta'lim tizimining oldiga qo'ygan asosiy maqsadi har bir o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga, o'zining jamiyatdagi o'rmini topishiga va o'zini o'zi yanada takomillashtirib borishiga qaratilgan yangi, har bir o'quvchi shaxsini e'tiborga oluvchi yondashuvga asoslangan ta'lim tizimini yaratishdir. Shunday ekan ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar ham ingliz tilini o'rganmoqchi bo'lganlar uchun amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi deb o'ylayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Buranov J.B, “ Ingliz tili grammatikasi” T.,,O’qituvchi”-1973
2. Hoshimov U, Buranov J, “ Ingliz tili grammatikasining normative kursi” T.: „O’qituvchi”-1987
3. Usmonov O’.U, S. Ashurov, “Ingliz tili nazariy grammatikasi “Sam.. -2007
4. G’apparov M, Qosimova R, “Ingliz tili grammatikasi “ T.: -2008

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA  
YO'NALTIRISH**

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 5-maktab o'qituvchisi*

*Yulduz Axadova Nasrullayevna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kasb-hunarlariga yo‘naltirish,ularga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish,o‘quvchilarning kasb-hunar tanlashidagi bir qator omillari,boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb va hunarga yo‘naltirish faoliyatlarini yuritishda ko‘pgina masalalarini bartaraf etish haqida to‘liq fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kasb-hunarlaraga yo‘naltirish,uslubiy,qo‘llanma,yangicha konsepsiya,kasb tanlash.

**Kirish:**

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko‘pgina faoliyatlar amalga oshirilib,Ta’lim tizimini takomillashtirish jarayoni bo‘yicha ham qonun va qarorlar qabul qilinmoqda.Mana shunday qonunlarda kasb va hunarga yo‘naltirish muammolari ham, shuning bilan birga ko‘rib chiqilmoqda.Shuningdek, Xalq Ta’limi Vazirligining 2002-yilning oktabrdagi 153-sonli qarorida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni kasb va hunarga yo‘naltirishning bir qator yangicha konsepsiyalari belgilangan edi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasb va hunar atamasini takomillashtirish, keljak avlodning keyingi yillarda egallaydigan kasb-hunariga diqqatli bo‘lish mamlakatning asosiy va muhim muammosidir.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qilingan asosiy maqsad keljak avlodning kelgusida egallayotgan kasb-hunarini o‘zi erkin aqliy tomonlama bilgan,tushungan holda tanlab,o‘z kasb-hunarining yuqori malakali mutaxassisini kabi yetishishida samarali hissa qo‘shishidir.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb va hunarga yo‘naltirish faoliyatlarini yuritishda ko‘pgina masalalarini bartaraf etishimizga to‘g‘ri keladi. Bizning asosiy ishimiz kelajagimiz tayanchi bo‘lgan o‘quvchilarni kasb va hunarga, iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatga ega bo‘lgan, bozor iqtisodiyotini yaxshi biladigan har tarafdan tushunadigan tajribali o‘g‘il-qizlarni tayyorlashdir.Ushbu faoliyatlar asosan quyidagi muhim bosqichlarda olib boriladi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ilk kasb va hunar bilim va tajribalarini maktabda,oilada, akademik litsey, kasb va hunar kollejlardida yuritish;
2. Yuqori malakali mutaxassislik bo‘yicha kollejlarda o‘qib, malaka oshirish;
3. Egallangan ko‘nikma ,faoliyat yuritadigan ish maskanida amaliy mashg‘ulotda malaka oshirish jarayonida mukammal tajriba oshiradi.

Aqliy salohiyat tomondan kasb-hunar tanlash uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘pgina kasb-hunarlarini kerakligicha o‘rganish, o‘rganganda ham kasb-hunarlarini o‘ziga tortadigan jihatlarini emas, balki mashaqqatlarini ham chuqurroq o‘rganishi, o‘zining shaxsiy odatlariga ko‘ra tanlangan kasb yoki hunarini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish faoliyatida o‘zining ko‘nikmasini rivojlantirish majbur qilinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunar tanlashi uchun keng yo‘l yaratib beradigan kasb-hunarlar olami bilan mukammal tanishish va kasb-hunarlar haqida tasavvurlarga ega bo‘lish,ularni moyilligini,qiziqishini va intilishini oshirishda quyidagi ko‘pgina metodik tavsiyalari mavjud:

- turli xil tashkilotlar uyushmasiga ekskursiyalar tashkil qilish-bunga bevosita tashkilotlar uyushmasiga borib,ulardagi ish faoliyati jarayoni,faoliyat yuritiladigan soha va ish tartibi bilan mukammal tanishish;

- axborotli ko‘pgina dasturlar ,agitatsiyalar,reklamalar,buketlar va boshqalar;
- tajribali mutaxassislar bilan samarali uchrashuvlar o‘tkazish yo‘li orqali;
- madaniy -ma’naviy tadbirlar tashkil qilish yo‘li bilan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda foydalanilgan metodik tavsiyalar yuqorida berilgan ro‘yxatlardan ancha ko‘p,biroq keltirilgan metodik tavsiyalar muhim,asosiy va bu yoshdagi o‘quvchilarni kasb-hunar tanlashida eng qulay va oson bo‘lgan yondashuv sifatida ko‘riladi.

### **Natijalar:**

Insonni kasb-hunarga yo‘naltirish maxsus ilmiy amaliy faoliyat yordamida amalga oshiriladi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning inson sifatida takomillashish jarayonlarida inson va jamiyat ya’ni oila yagona bir tizim sifatida e’tiborga olinadi, o‘tish davrida bozor munosabati aloqalari talablari ahamiyatga olinadi.Kasb-hunarni to‘g‘ri tanlash har bir rivojlanib kelayotgan keljak yosh ob’ektiv vajlariga, qiziqishlariga, moyilliklariga, iste’dodiga va imkoniyatlariga xos bo‘lishi uchun uning sog‘ligini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish muhim, bular ijtimoiy samarali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘proq o‘z ifodasini topadi va namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kasbiy asosiy xususiyatlarni erta aniqlash esa keyinchalik unga o‘z odatlariga qarab kasb yoki hunarni to‘g‘ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda erkin egallah, hunarda baland natijalarga erishish darajasini yaratish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars beradigan boshqa fan o‘qituvchilari ham o‘zining fanidan o‘quvchilarining aqliy salohiyati qanday darajada ekanligi haqida o‘quvchilarining sinf rahbariga bu haqida axborot yetkazib,hamjamiyatlikda ish yuritsa,kasb-hunarga yo‘naltirish doirasida paydo bo‘ladigan ko‘pgina masalalarning oldi olinardi.Kasb-hunarga yo‘naltirishda nafaqat maktab a’zolari ,balki ushbu jarayonda ota-onalar ham ilg‘or ishtirok etishi zarurdir.

### **Muhokama:**

Mehnat ta’limi o‘quv predmetidan darsdan tashqari turli xil tadbirdarda kasbhunarga yo‘naltirish masalalarini ishlab chiqishda pedagog olimlar, tadqiqotchilar, tajribali va ko‘zga ko‘ringan o‘qituvchilar oldida bajarilishi zarur bo‘lgan bir qator vazifalar turibdi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ma’lumotlardan kelib chiqib shunday muhokama qilish mumkin:

-umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish-hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri;

-hunar ta’limi o‘quv fanining ma’no-mazmunidan kelib chiqib va unda bor bo‘lgan keng qulayliklardan samarali foydalanib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb va hunarga yo‘naltirish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin;

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda dars mashg‘ulotlari bilan bir qatorda darsdan tashqari tadbirdardan ham unumli foydalanish kerak; -mehnat ta’limi bo‘yicha umumta’lim maktablari o‘qituvchilarini uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma va tavsiyalar yetarli emas.

### **Xulosa:**

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, inson ma’lum bir tayyorgarlik bosqichidan o‘tgandan keyin,to‘g‘riroq qilib aytganda,o‘rta maktab bosqichidan keyingi bosqichga o‘tish davridan o‘z intilishlari,o‘zi uchun hayotda u yoki bu kasb-hunarda band bo‘lish maqsadlari asosida to‘g‘ri kasb-hunar tanlashi muhim hisoblanadi.

Hammagini umumiyl olib qaraganda ,boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbhunarga yo‘naltirishda faqat kasb yoki hunar haqida og‘zaki ma’lumotlar aytibgina olmay ulardagi intilishni topib takomillashtirish bosqichlarini amalga oshirib borish juda muhimdir.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. K. Davlatov, V.CHichkov. "O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash" Toshkent "O'qituvchi" 2001.
2. Ermatova,G.N. Boshlang'ich ta'lif o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar- 2019.
3. S.U. Klyuga, S.N. CHistyakova «Kasb tanlash" kursi metodikasi. Toshkent «O'qituvchi" 2003.
4. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005.
5. Boltaboyev S.A., Magdiyev O.SH., Sattorov V.N., Avazboyev O.L. "Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari". Uslubiy qo'llanma. 2002.
6. Magzumov P.T., Antonov A.F. va boshqalar. "O'quvchilarni mehnat va kasb tanlashga tayyorlash".-T.: «O'qituvchi», 2005.

BOSHLANG‘ICH TA`LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Abdalimova Dono Bahromjonovna*

*Toshkent viloyati Angren shahar 29- umumi o'rta ta'lim maktabi*

*Boshlang'ich ta'lim*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish shart-sharoitlari, imkoniyatlari hamda ularni qo’llashga oid tushunchalar tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** innovatsion texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, darsning mantiqiy strukturasini qurish, mantiqiy fikrlash, mustaqil ish, didaktik materiallar, prezentatsiya.

## KIRISH

**Pedagogik texnologiya bu** - oldindan loyhalangan ma'lum bir pedagogik tizimni amaliyotga joriy qilish. Pedagogik tizim bu shaxsga maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan metodlar, vositalar va jarayonlar yig'indisi. Maqsadimiz o'quvchilarni oldindan bilimini mukammalashtirib uni samarali va sifatli bilimga ega bo'lishga ta'sir berish.

Hozirga kunda jahon pedagogikasida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga 12 xil tarif berilganligi ma'lum.

*Pedagogik texnologiya.*

*Bu borada mutaxassis olimlarimiz qanday fikrdalar?*

1. Pedagogik texnologiya bu...ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir. (**YUNESKO**) 2. Ped.texnologiya bu pedagogning amaliyotga joriy etishi mumkin bo'lgan pedagogik tizim loyihasidir. (**V.Bespalko**)

Ikkinchı ta’rifda nimaga e’tibor berilyapti? (amaliyotga) Darhaqiqat, amaliyotga e’tibor berish kerak, quruq gap bilan hyech narsaga erishib bo‘lmaydi. Bilim berish butun bir sistema. Xuddi bizning tanamiz bir sistema bo‘lganidek. Moboda charchab qolsam, o‘tirib dam olaman va tanam bir birini to‘ldiradi<sup>1</sup>.

Endi tasavvur qiling, shu sistemamda bitta tishim og‘rib qoldi.Nima bo‘ladi? (Butun sistemani ishdan chiqaradi). Xuddi shunday, pedagogikada biror biror bir xatolikka yo‘l qo‘ysak, oxirida albatta natija biz kutgandek bo‘lmaydi.

3. Texnologiya-biror ishda, mahoratda, san`atda qo‘llaniladigan usullar, yo‘llar yig‘indisi. (*Izohli lug‘at*)

Bu ta’rifni izohlash uchun arafa kuni osh tarqatish udumi eslatiladi.) Xuddi oshlar har xil bo‘lganidek, texnologiyalar ham har xil. To maqsadga yetgunga qadar usullarim yig‘indisi mening texnologiyamdir. Men texnologiyamda biror bir kamchilikka yo‘l qo‘ysam, oxirida men kutgan natijaga erisha olmayman. Buning uchun men qo‘l ostimdagi bolalarga e’tibor berishim kerak. Uning uchun inson toifasini bilishim kerak.

«... avvaldan rejalshtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo‘lgan tartibli amallar tizimidir» - **V. Monaxov**

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnologiyaning eng qadimgi manbai bu - nuqsonsiz mehnat konsepsiysi ekan. Nuqsonsiz mehnatni ta‘minlovchi shartlardan biri mehnat qilayotgan subyektning psixologik shaxsiy xarakteristikalarini hisobga olishdir. Bunday mehnatning eng muhim omillari quyidagilar:

- kasbga qiziqish;
- kasbiy tayyorgarlik sifati;
- o‘z mehnatini muntazam nazorat qilib borish.

---

<sup>1</sup> Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2018. – 180 b.

Nuqson siz mehnat g‘oyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri pedagogik faoliyatga ko‘chirish mumkin emas. Chunki, unda omillar ancha ko‘proq.

Pedagogik texnologiyaning metodologik sifatlari quyidagilardan iborat: texnologik sxema, ilmiy asos, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik, takrorlanuvchanlik.

Texnologik sxema- texnologik jarayonning shartli ifodalanishi. U alohida funksional elementlarga bo‘linadi va ular orasidagi mantiqiy aloqalar belgilanadi.

Tizimlilik - pedagogik texnologiya tizimga xos bo‘lgan barcha belgilarga ega bo‘lishi kerak:

- jarayonning mantiig‘i;
- uning barcha qismlarining o‘zaro bog‘liqligi;
- yaxlitligi;

Boshqaruvchanlik deyilganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- maqsadlarni qo‘yish;
- rejalashtirish;
- o‘qitish jarayonini loyixalash;
- qadamba-qadam tashhis qo‘yish;
- natijaga tuzatish kiritish maqsadida vosita va metodlarni o‘zgartirish.

Samaradorlik - zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda mavjud bo‘ladi va ma’lum o‘qitish standartlariga erishishini kafolatlaydi, natija bo‘yicha samarador, xarajatlar bo‘yicha optimal bo‘ladi.

Takrorlanuvchanlik - pedagogik texnologiyani boshqa subyektlar boshqa ta‘lim muassasalarida qo‘llashi mumkinligi (natija esa bir xil bo‘ladi).

Haqiqatan ham, agar o‘quv jarayoni to‘la takrorlanuvchan, alohida ko‘rinishlarga bo‘linsa, o‘qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o‘zi tuzgan bo‘lishi shart emas) material bilan o‘qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo‘lib qoladi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bir necha turga bo‘linishi mumkin:

1. Muammoli ta’lim texnologiyalari.
2. Didaktik- o‘yinlarga asoslangan texnologiyalar.
3. Hamkorlik texnologiyalari.
4. Modulli texnologiyalar.

Bu kabi pedagogik texnologiyalarni qo’llash orqali boshlang’ich ta’lim o‘quvchilarini ilg‘or zamonaviy shaxs etib tarbiyalashga erishish mumkin.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalarini pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2018. – 180 b.
2. Gaynullaev N.G, I. Dyrchenko. Razvitie matematicheskix sposobnostey uchaščixsy. T.: «O‘qituvchi», 2018
3. Habib R.A. O‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish. T.: «O‘qituvchi», 2011
4. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O‘qituvchi ”2014 yil.
5. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016.

BOSHLANG`ICH SINFLARDA XORIJIY TILLARNI O`QITISH  
MUAMMOLARI

**Zilolaxon Xudoyberdiyeva**

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani, 19-umumiyl o'rta ta'lim maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Zilolaxon Xaqqulova Xusanovna**

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani, 19-umumiyl o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitish muammolari yoritib berilgan. Xususan, xorijiy tillarni o'qitishda yangi metodika va dars ishlanmalarini joriy etish va shu bilan birga o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalar, dars o'tishning noan'anaviy usullarini joriy etish ko'zda tutilgan

**Kalit so'zlar:** estetik tarbiyalash, hozirjavoblik, o'quv mashg'ulotlari, "Kid's English", "Deutsch macht spab", "Hirondelle"

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы обучения иностранным языкам в начальной школе. В частности, планируется внедрение новых методов и разработок в преподавании иностранных языков, а также внедрение педагогических технологий, нетрадиционных методов обучения в учебный процесс.

**Ключевые слова:** эстетическое воспитание, отзывчивость, тренинг,

«Kids English», «Deutsch macht spab», «Hirondelle».

**Abstract:** The article deals with the problems of teaching foreign languages in primary school. In particular, it is planned to introduce new methods and developments in teaching foreign languages, as well as the introduction of

*pedagogical technologies, non-traditional teaching methods in the educational process.*

**Key words:** *aesthetic education, responsiveness, training, Kids English, Deutsch macht spab, Hirondelle.*

O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi oldida turgan dolzARB vazifa har tomonlama kamol topgan sog`lom, qobiliyatli, o`z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir . Bu ulug` maqsadni ro`yobga chiqarish xalq ta’limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng o`qituvchilar ommasidan o`z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o`ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta`lim olayotgan o`quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo`lgan ma`lum darajada bilimli kishilardir.

Farzand dunyoga kelishi bilan ota-onva qarindosh-urug`lari kundan-kun o`sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko`rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro`yobga chiqayotganligining guvohi bo`ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o`z bolasining qo`l-oyoq va gavda harakatlarini o`yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o`yin bilan bog`liq bo`ladi. Asta-sekin o`yin yosh bola hayotining asosiy mashg`ulotiga aylanadi. O`yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir.

Mazkur maqolada boshlang`ich sinflarda xorijiy tillarni o`qitish muammolari va uning bugungi kundagi xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo`lib belgilandi.

Maktabga ilk qadam qo`yayotgan kunda ota-onaning hayajoni birinchi sinfga chiqqan dilbandidan-da ko`proq bo`ladi. Farzandining jajji qo`llaridan tutib maktabga yetaklayotgan kattalar ko`nglining bir chetida bolajonim shu ta`lim dargohiga qanday ko`nikarkan, darslarni o`zlashtirishda qiyalmasmikan, degan hadik bo`ladi. Bugun maktabga ilk bor qadam qo`ygan o`quvchining kechagi mashg`uloti o`yin edi. Bolada boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan materiallarni o`zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga mo`ljallangan bilimlarning o`zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o`rinda Samarqandlik pedagog A. Umarovaning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Tasavvur qiling, o`quvchi ma`lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin mакtab o`quvchisi bo`ladi. Uning vazifasi o`zgaradi. Bir kecha- kunduzda o`rtacha 4 soat ta`lim oladi. Kechagi o`yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab... o`qituvchi bilan muloqatda bo`ladi. O`quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o`qituvchi loqayd, mas`uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota- onalarning holati bilan hamohang bo`lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga “vaqt yo`q” bo`lsa, o`sha o`quvchilar bo`sh o`zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o`quvchilarga aylanadilar. O`z kasbining mohir ustasi bo`lgan fidokor o`qituvchi ana shu paytda o`quvchilarni qo`lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o`quv mashg`ulotlariga qiziqish uyg`otadi.

Har bir xorijiy tili darslari xuddi zina kabi yuqoriga qarab qo`yilgan qadam misoli bo`lmog`i o`qituvchidan yangicha usul, ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Bugungi xorijiy til o`qituvchisi zamон bilan hamnafas, taraqqiyot robitlaridan boxabar, olamda kechayotgan jarayonlar haqida o`z fikriga ega shaxs bo`lishi kerakligini davrning o`zi taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatda xorijiy tillarning o`rganilishi ko`p omillarga bog`liqdir. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy salohiyati va uning

xalqaro miqyosdagi munosabatlari hamda hududiy va global tarmoqqa aloqadorlik darajasi xorijiy tillarni o`qitish masalalariga hamda ularning o`rganish ketma-ketlik tartibiga ham ta`sir etadi. Xorijiy tillarni o`rganish jarayonida birinchi chet tili markazda umumta`lim maktablari boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun chet tillarni o`rganish bo`yicha turli qo`llanmalar ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

Mazkur qaror asosida ishlab chiqilgan yangi o`quv rejaga ko`ra, 1 – 4 sinflarga haftasiga ikki soatdan chet tili fani kiritildi va uni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilandi. Shu maqsadda yangi davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturlari asosida 1-sinflar uchun ingliz “Kid`s English”, nemis “Deutsch macht spab”, fransuz “Hirondelle” tillaridan darslik majmualari yaratildi. Bu majmualar o`quvchi kitobi, o`qituvchi uchun metodik qo`llanma va multimediali ilovalar (DVD diskdan) iborat. E`tiborli jihat shundaki, qo`llanmalarni farzandlariga yordam berish bahonasida ota-onalar, buvijon-u buvajonlar ham o`qishlari, jiddiyroq harakat qilishsa, o`zlar ham o`zlashtirishlari mumkin.

Boshlang`ich ta`limda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O`quv jarayoniga pedagogik texnologiyalar, dars o`tishning noan`anaviy usullari, xususan, interfaol usul keng joriy etilayapti. Dars o`tishning zamonaviy pedagogik uslublariga doir ko`plab qo`llanmalar mavjud. Xususan, “Chet tilidagi yangi so`zlar qanday bayon qilinganda uning necha foizi o`quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o`zlashtiriladi?” Degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o`tkazilgan tajribalar yakuni “xotirada saqlash” degan nomni oldi. Unga ko`ra o`quvchi yangi so`zlar sonini: faqat eshitganda uning 10-20% i; eshitsa va so`zlarga oid ko`rsatmali materiallar bilan tanishsa, uning 30-50% i; eshitsa, yangi so`zlar bo`yicha amaliy mashg`ulotlar bajarsa, so`zlarni tarjimalari bilan o`rtoqlariga aytib bersa, tushuntirsa, ular bilan mazkur so`zlardan foydalangan holda muloqatda bo`lsa, yangi so`zlearning 60-90% i yodda qoladi, o`zlashtiriladi.

Binobarin, o`qituvchi sinfga kirib o`quvchiga faqat ma`ruza o`qib chiqib ketishining foydasi kam bo`ladi. O`quvchi har bir o`rgangan mavzusi yuzasidan o`rtoqlari, o`qituvchisi bilan o`zi muloqotga kirishishi, dars davomida olgan bilimlarni gapirib bera olishi kerak. Ana shunda olingan bilim mustahkam bo`ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo`ldosheva Sh. Savod o`rgatish. T. “O`qituvchi” 1996 y.
2. Mardonova. Boshlang`ich sinflarda ta`lim-tarbiyani takomillashtirish. “Sharq”- 1998.
3. Umarova A. O`yin musobaqa darsi // Boshlang`ich ta`lim. 1992. 1-son , 48-bet.

**INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARINING TALABALAR  
TARBIYAVIY FAOLIYATGA KIRISHISHIDA TUTGAN O‘RNI**

*Ibragimova Gulsanam Ne’matovna*

*Ilmiy rahbar: P.f.d., prof.v/b*

*Mullaboyeva Diyoraxon Soib qizi*

*Nizmoiy nomidagi TDPU, 5A110902 - Pedagogika va  
psixologiya magistratura mutaxassisligi I bosqich magistranti*

**ANNOTATSIYA:**

Mazkur maqola talabalarning tarbiyaviy faoliyat jarayoniga kirishishida innovatsion tarbiya texnologiyalarning tutgan o‘rni haqida fikr-mulohazalarga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talabalarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini mavjud holatidan yuksaltirish, bu sifatlarni tarbiyalash jarayonida qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari mumkinligi qayd etiladi. Bundan tashqari ushbu maqola orqali o‘quvchi innovatsion tarbiya texnologiyalari bugungi zamonaviy jamiyatda talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, to‘ldirilib boriladigan bir butun tizimga ega ekanligi haqidagi ma’lumotlarni ham bilib olishi mumkin. Bu maqoladan pedagogika va psixologiya yo‘nlishi bo‘yicha tahsil oluvchi talaba va magistrlar, shu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar hamda sohaga oid izlanishlarni olib borayotgan tadqiqotchilar va shular singari soha vakillari foydalanishlari mumkin.

**KALIT SO‘Z VA IBORALAR:**

Innovatsion tarbiya texnologiyalari, ma’naviy-axloqiy sifatlar, maqsad, ijodkor, mustaqil fikr, komil inson, estetik, siyosiy madaniyat, texnologik tizim.

**АННОТАЦИЯ:**

Данная статья посвящена роли инновационных образовательных технологий во внедрении обучающихся в процесс образовательной

деятельности, отмечается, что они могут иметь никны и навыки. Кроме того, посредством данной статьи читатель может узнать о том, что инновационные образовательные технологии в современном обществе имеют целую систему, которая дополняется требованиями общества в воспитании духовно-нравственных качеств учащихся. Статья предназначена для студентов и аспирантов по специальности педагогика и психология, а также для преподавателей и научных сотрудников в данной области, а также для представителей отрасли.

### **КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА И ТЕРМИНЫ:**

Иновационные образовательные технологии, духовно-нравственные качества, цель, творчество, самостоятельное мышление, совершенный человек, эстетика, политическая культура, технологическая система.

### **ABSTRACT:**

This article is devoted to the role of innovative educational technologies in the introduction of students into the process of educational activities, it is noted that they may have nicknames and skills. In addition, through this article, the reader can learn that innovative educational technologies in modern society have a whole system that is complemented by the requirements of society in the education of spiritual and moral qualities of students. The article is intended for students and postgraduates in the specialty of pedagogy and psychology, as well as for teachers and researchers in this field, as well as for representatives of the industry.

### **KEYWORDS AND TERMS:**

Innovative educational technologies, spiritual and moral qualities, goal, creativity, independent thinking, perfect person, aesthetics, political culture, technological system.

Zamonaviy jamiyatimizda bugungi kunda innovatsiya, innovatsion texnologiya kabi tushunchalar noaniq tushunchalar emas. Xuddi shular kabi **innovatsion tarbiya texnologiyalari** iborasi ham biz uchun yangilik emas. Pedagogika sohasida tahlil olayotgan talabalarni tarbiyaviyaviy faoliyatga tayyorlashda bu innovatsion tarbiya

texnologiyalariga o‘rinli ravishda murojaat qilinmoqda. Ushbu murojaatdan ko‘zlangan maqsad shuki, innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash jarayonida ayrim bilim, ko‘nikma, malakalarini ham shakllantirishdir. Quyida ayni shu xususida mulohaza yuritamiz.

Hozirgi vaqtda ta’lim sifatini oshirish uchun amalgalayotgan amaliy ishlar safida innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan bir qatorda innovatsion tarbiya texnologiyalari ham baravar xizmat qilmoqda. Aynan innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatga kirishishlarida tutgan o‘rni o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Innovatsion tarbiya texnologiyalari talabalarni tarbiyaviy faoliyat jarayoniga tayyorlashning sifatini oshirishda ham asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lmoqda.

Jamiyatning rivojlanishi, yangi turmush sharoitlari, qarashlari, madaniyatlar, bilimlari va texnologiyalari, yangi rivojlanish imkoniyatlari hamda o‘zini o‘zi anglash shakllariga ochiqlik jarayonlari bilan bog‘liqligi sababli, bu ta’lim jarayonida yangicha innovatsiyalarni ishlab chiqish va faol foydalanishni taqazo etmoqda. Shu boisdan ham pedagogik amaliyotda innovatsion tarbiya texnologiyalaridan unumli foydalanish o‘qitishning intensivligini, bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish darajasini yanada orttirishga, motivatsiya va qiziqishni yuksaltirishga, ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talaba-yoshlarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda doimiy o‘zgarib turadigan jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, to‘ldirilib boriladigan bir butun tizimga ega desak bo‘ladi. Chunki uning bir-biri bilan bog‘liq tarkibiy qismlari o‘qituvchining tarbiyaviy faoliyatida muhim yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lib, hamisha mazmun jihatidan boyitib borilish talab etiladi.

Innovatsion tarbiya texnologiyasi bu — pedagogik metod, usul va vositalarni rejali hamda kutilgan natijalarga erishish yo‘lida imkoniyatlar safini kengaytiradigan, shaxsga va jamoaga aniq ta’sir ko‘rsatadigan jihatlarni ham tanlash

uchun tizimdir. Bu tarbiyach-o‘qituvchining o‘quvchilar bilan bog‘liq amaliy faoliyatni to‘g‘ri shaklda tashkil qilish va boshqarish borasidagi ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishidir. Innovatsion tarbiya texnologiyalariga murojaat natijasida talabalarning tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish ishlarida uyushqoqlik bilan o‘tkazadigan tadbirlari ham ahamiyatlidir. Bu bilan o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarning aqliy rivojlanishini, bilish tafakkurini, kasb tanlashga nisbatan qiziqishini, erkin fikrlashini, o‘z fikr-mulohazalarini hech qanday qo‘rquvsiz, cho‘chimasdan to‘g‘ri tassavur ila bayon eta olish tushunchalarini shakllantirishda yordam beradi.

Tarbiyachi-o‘qituvchining innovatsion faoliyati davomida har bir o‘quvchi alohida yondashuvni topish, o‘quvchi iste’dodida namoyon bo‘ladigan holatlarda uning faolligini oshirishga qaratiladi. Tarbiyach-o‘qituvchi tomonidan uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlar shuning uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ammo buni shunchaki tashkil etib bo‘lmaydi, balki bu jarayonda ma’lum talablar mavjud. Bular: tarbiyaviy tadbirlar hech qachon tasodifiy bo‘lmasligi va albatta, har bir tadbir jarayoniga puxta tayyorgarlikni ko‘rish lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, o‘quvchilar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarga mohirlik-la rahbarlik qila olish uchun tarbiyachi jamoaning va jamoatchiliklar ziddiyatlarini ham bilishi kerak. Bunday ziddiyatlarning barham topishi tarbiyachi shaxsi, uning tarbiyalanuvchilar bilan yaqin munosabatlariga ham uzviy bog‘langan. Haqiqiy mahoratga ega tarbiyachi-o‘qituvchi bundaying ziddiyatlarni bartaraf eta olishida o‘quvchilar jamoasi, o‘quvchilar o‘zaro munosabatlarining kuchidan unumli foydalanishni biladi. Har bir o‘quvchida o‘zining ijtimoiy va psixik olam mavjudligini inobatga olsak, uni bilish, o‘rganish tarbiyachi-o‘qituvchidan psixologik nuqtai nazardan yondashishni talab etadi. Aynan tarbiyaviy faoliyatning mana shu jihatlarini hisobga olib ayta olamizki, talabalarni tarbiyaviy faoliyat jarayoniga kirishishida innovatsion tarbiya texnologiyalarining ahamiyati va uni puxta o‘rganishlari yuqori ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogicheskkiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo.-T.: Moliya, 2002.
2. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari.-T.:2005.
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Iqtisod-moliya», 2010.
4. Хожиева, З. У. (2017). РОЛЬ РЕФЛЕКСИИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (1-2 (17)), 7-9.
5. Ходжиева, З. У. (2016). ГУМАНИЗАЦИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-, 2016.
6. Хожиева, З. У. (2016). Гуманизации дидактических отношений между учителем и учащимся в современном образовании.
7. Xojieva, Z. U. (2014). The Role of " Mark" in Humanization of Didactic Relationships. In Young Scientist USA (pp. 33-36).
8. Yo'ldoshev J.G',, Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. — Т.: O'qituvchi, 2004.

## **THE NEED OF MEDIA EDUCATION AND THE IMPORTANCE OF CONTENT IN THE UZBEK CHILDREN AND YOUTH PRESS**

***Farzona Xamroyeva***

*Journalism&Mass Communications University of  
Uzbekistan, Masters Degree*

***Annotation:*** The scientific article explores and summarizes ideas on the development of media education, problems and solutions in children's journalism. The study of Uzbek children's periodicals as a factor in the spiritual and political development of society was conducted, and analyzes were conducted to encourage children to information literacy.

***Keywords:*** media education, critical thinking, content, children's press

Болалар ва ўсмирлар медиатаълимини ривожлантиришда болалар матбуотининг ўрни аниқ бироқ ҳали ҳануз етарли даражада ўрганилмаган. Аксарият ҳаваскор ва расмий болалар ва ўсмирлар оммавий ахборот воситалари ўзларининг медиа-маърифий имкониятларидан тўлиқ фойдаланмайдилар. Гарчи медиаматнларни яратишда болаларнинг иштироки ва уларнинг хаваскор нашрларни таёrlаши медиатаълим фаолиятининг муҳим элементи эканлиги тадқиқотчилар томонидан исботланган. Медиатаълимнинг бош вазифаси шахсларда ОАВ га нисбатан таҳлилий кўникмалар ва танқидий фикрлашни ривожлантиришдир.

Медиатаълим сўзининг келиб чиқиши борасида олим А.В.Федоров шундай изоҳ беради: “Media – атамаси лотин тилида восита маъносини англатади. Замонавий дунёда media – ОКВ -оммавий коммуникация воситалари (матбаа, фотография, радио, киноматография, телевизор, видео, мультиемдиявий компьютер тизимлари, шу жумладан Интернет) ҳамда ОАВ оммавий ахборот воситалари атамаларининг аналоги сифатида ишлатилади.

Шу билан бирга “media” турли мамлакатлар талқинида стилистик жиҳатдан ташқари бошқа қоидаларга кўра тафовутга эга эмас.”<sup>1</sup>

“Медиатаълим медиани ўрганишдир. Медиатаълим яратилаётган ва тарқатилаётган медиаматнлар билан боғланган. Таълим олувчиларда медиаматнларнинг мазмун-моҳиятига изоҳ ва баҳо бериш учун таҳлил қила олиш қобилиятини шакллантиради. Медиани ўрганиш одатда амалий тарзда, яъни медиаматнлар яратиш билан боғлик амалга оширилади. Медиатаълим медиани ўрганиш орқали медиасаводхонликни оширишга хизмат қиласи.”<sup>2</sup>

Media representation – британиялик медиапедагог К.Багелгэт ( Bazalgette, 1992) тасдиқлашича, медиатаълим моҳиятининг энг асосий 6 та тушунчалари (media agency, media category, media technology, media language, media audience)дан биридир. Media representation – қайта фикрлаш, медиаматндаги воқеликни талқин қилишдир. Болаларга ихтисослашган журналистикада болаларча ёзишга уринган катталар психологияси уфуриб туради, болалар ахборотни таҳлил, танқид, презентация яъни маълумотни қайта ўзи янги талқинда яратади олиш каби вазифаларни бажармай қўяди. Болалар қизиқтирган мавзуларни муҳокама қилиш, уни ёритишида журналистнинг маҳорат масаласи ҳам нашрнинг “оммабоп” бўлишида бирламчи талаб саналади. Ўзбекистонда кичик ёшдаги болаларнинг адабий-бадиий безакли республика журнали “G’uncha” мисолида медиатаълим элементларига оид муносабатлар мавжуд. Журналнинг 2022 йил 3 сони март ойини яъни кўкаламзор ва баҳор дарагини билдириб турган миллий либослардаги қиз ва ўғил суратининг табиат гўзаллиги билан боғланган муқовада акс этади. Журнал ўзбек насрининг дилбар шоираси Зулфия Истроилованинг “Капалак” номли шеъри ва “Қушларнинг катта онаси” номли кичик ҳикоя билан бошланади. Баҳорга оид

---

<sup>1</sup> Федоров.А.В. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. Москва. 2014

<sup>2</sup> Dorr, A. (2001) Media Literacy. In: International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. Vol. 14 / Eds.N.J.Smelser & P.B.Baltes. Oxford, 2001, pp.9494-9495.

ҳикоялар кетма-кетлигини Дилфузада Шомаликова ижодий ишлари давом эттиради. “Қанотсиз шар” номли Дилфузада Камолжонова муаллифлигидаги ҳикояда ҳаво шари борасида сўз юритилади ва аниқ маълумотлар бериб борилади. Аниқ маълумотларни ҳикоя усулида болаларга тақдим қилиш уларни илмий-оммабоп материаллар ўқишига ундаиди дейиш мумкин.

“Истеъдод” рукнида эса Маърифат Толипова муаллифлигига “Ҳайиталининг ихтиrolари” номли мақола бўлиб, унда оддий асли андижонлик б синф ўқувчисининг “Тико” енгил автомобилини юк машинаси қилиб ясагани ва унга “Тикопекап” деб ном берган. Фан-техникага болалар қизишини ўстириш учун сай-ҳаракат қилган журналист ушбу ўринда Ҳайиталининг жаҳондаги тенгдоши ясаган ихтиродан ҳам мисол келтирса, агар болалар ҳаракат қилса ва ўқиса албатта қўлидан буюк ишлар келиши мумкинлигига ишонтириши уларга руҳий мадад, мотивация бериши мумкин эди. Бироқ, материал фақатгина ахборот тақдим қилган. Фикрлашга, хулоса чиқаришга ва асосийси амалий ҳаракат қилишга ҳеч қандай ундовга эга эмас. “Зийнат боғда мевалар баҳси” номли материалда қўлланилган “анжирвой, анорполвон” сўзларининг қўлланилиши эса 6-11 ёшга мўлжалланган журнал учун ноўрин бўлиб, бундай номлар 3+ журналларда қўлланилиши мақсадга мувофиқ. Бошлангич синф ўқувчиси гарчи ҳали бола бўлса ҳам мактаб остонасига қадам қўйган ўқувчи сифатида янги маълумотлар ва қизиқарли ахборотларнинг қўнгилочар усулдаги тақдимоти билан ўз билимини бойитиши лозим. Сахифада мантиқий саволлардан иборат “ Қувноқ тест” берилган. Бироқ, унинг муаллифи Юлдуз Тешабоева болаларга тестнинг тўғри жавобини текшириш имкониятини тақдим қилмаган. Бунда журнал сахифа остига тўғри жавобни бизнинг ижтимоий тармоқ манзилимизга юборинг ва китоб ютиб олинг ёки “Зоопарк” ка чипта ютиб олинг каби акциялар билан ўқувчиларни қизиқтириши мумкин. Журналнинг 2022 йил 1 сонида “Берилган ҳарфлар иштирокида нечта сўз ҳосил қилиш мумкин?” сўз ўйини берилган ва

сўзлар учун катаклар қолдирилган ўйин мавжуд. Россиянинг “Мурзилка” журналида эса “По страницам сказочных вестей” номли кроссворд ўйин тақдим этилган бўлиб унда русс халқининг каттаю- кичигига севимли “Простоквасина”, “Буратино”, “Чебурашка Гена” “Гулливер в стране лилипутов” каби асарлардан қизиқарли саволлар тақдим қилинган. “G’uncha” Адабий- бадиий безакли журнали ҳам болалар истагини қондира оладиган ўйинлар ва маълумот узатиш учулини хорижий журналлардан ўрганиши ва доимий йирик ҳажмли мақолалардан қочиши ва доимий равища миллийликни эмас оммабопликни ифода этиши лозим.

Матбуот тилининг ўзига хос хусусиятлари ундаги вербал ва график компонентларнинг ўзаро таъсирлашувлари билан белгиланади. Шрифтнинг тури ва ҳажми, расмлар, ранглардан фойдланиш, қоғознинг сифати, материалларнинг саҳифада жойлашуви кабиларнинг барчаси сўзлар билан бирлашиб матбуотнинг ягона синкетик тилида кўринади. Айниқса, болалар нашрларида. Болалар нашрларининг тили содда, равон, тушунарли ва болаларбопдир. Болалар газетасини варақлаганизда саҳифаларда кўп мақолаларни, хабарларни, хатларни, шеър ва ҳикояларни учратасиз. Мақолаларнинг ҳар бири бола тилидан, унинг ўй-хаёлларидан келиб чиқиб ёзилган.<sup>3</sup>

Болалар онгига маърифий ҳисса қўшиш келажакка қўйилган энг мустаҳкам пойдевор бўлиб, тўғри, аниқ ва таҳлилий маълумот қабул қила олиш қобилиятига эга ҳар қандай фарзанд кун келиб тўғри йўлдан қоқилмай, турли мафкуравий босимларга учрамай дадил қадам ташлайди. Буни ташкил қилишда эса айнан улар ўқийдиган нашрларнинг мазмунини назорат қилиш, болаларга сифатли, тўғри ва қизиқарли контент яратиш зарур.

---

<sup>3</sup> Атакулова.А.С. Замонавий матбуотда болалар нашрлари:тадриж, таҳлил ва талқин. Маг. Диссертация, – Тошкент . 2012

“Контент – умумлаштирилган тушунча бўлиб, Интернет ривожланиши билан унинг мазмун кўлами янада кенгайди. Уни кўп соҳаларда қўллаш ва кўплаб таърифлар келтириш мумкин. Инглиз тилидан **content** –мазмун маъносини билдиради. Биринчи навбатда матн мазмуни тушунилади. Фотосуратлар, расмлар, видео ва аудио файллар медиа контент сифатида таснифланади. Бу атаманинг ўзи бизга медиа-коммуникация соҳасининг виртуал майдонидан келган.”<sup>4</sup>

**Комикслар.** *comic* инглиз тилидан “кулгули” маъносини билдириб, расмларда ҳикоя ёки қўлда чизилган расмларда ҳикоя маъноларини билдиради.<sup>5</sup> Комикс ўзида адабиёт ва тасвирий санъат каби бадиий ижод шаклларини бирлаштиради. Китоб ва журналларнинг иллюстрацион расмлари баъзан ОАВда ҳам чоп этилади. Уларнинг график роман, стриплар, веб-комикслар каби турлари кўп. Тадқиқотчилар фикрига кўра, комикслар ҳикояларнинг визуал ҳаракати акс этган ягона бирликдир. XX асрда комикслар оммавий маданиятнинг энг оммабоп жанрига айланди.

“Кўпинча савол туғилади: бола комиксни ўқиб бўлгандан кейин анъанавий адабиётни ўқишига қизиқадими? Афсуски тадқиқотлар ҳам бугунги кунда буни фоизи унчалик катта эмаслигини тасдиқлайди. Лекин Россияда комикслар билан боғлиқ нашриёт фаолиятини давом эттириш билан бу нисбатни ошишига ишонч бор. Комикслар, турли сабабларга кўра китобга катта қизиқиши кўрсатмайдиган болаларни ўқишига жалб қилиш учун ажойиб восита бўлиб хизмат қилиши мумкин. Бошқа нарсалар қаторида яхши комиксни ўқиш, болада хаёлот ва ижодий фикрлашни ривожлантиришни рағбатлантиради: комиксларни ўқиган болалар жуда кўп ихтиояратишни ва ўз ҳикояларини чизишни бошлайдилар. Ушбу ҳодиса, масалан, мактаб

<sup>4</sup> Павленко Т.С.. Понятие “Контент”: типология, виды и технология получения дидактического контента в образовательном процессе Извести ВГПУ. 2017 <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-kontent-tipologiya-vidy-i-tehnologiya-polucheniya-didakticheskogo-kontenta-v-obrazovatelnom-protsesse>

<sup>5</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D0%BA%D1%81> Комикс. Википедия

ўқувчилари орасида классик ва табиий фанларга оид адабиётларни оммалаштириш учун муваффақиятли ишлатилиши мумкин (бир парча ўқиб, кейин уни комик чизгиларга айлантириш; биология дарслигидаги маълумотлардан фойдаланган илмий-оммабоп комикс китоб яратиш ва бошқалар).”<sup>6</sup>

2020 йил 2 сондаги “G`uncha” журналида аниқ руқн билан номланмаган Дилфуз Азимова муаллифлиги ва Сарвар Фармонов расмлари билан “Мақтанчоқ жониворлар” сарлавҳали комикс акс этган. Унда маймун, тўтиқуш, илон ва фил бош қаҳрамонлардир.

*“Ҳайвонот боғида жониворлар суҳбатлашишиарди:*

*Маймун: –Мен циркда акробат бўлишим мумкин.*

*Тўти: –Мен эса инсонлар билан мазза қилиб суҳбатлашаман.”*

*Илон: –Мен кемага арқон бўла оламан.*

*Фил: –Мен фақат филча бўла оламан.*

*–Ҳафа бўлмагин, болалар барибир сени яхши кўришиади, дейшишади дўстлари. –Рахмат дўстларим. Жуда хурсанд бўлдим.*

Ўзаро дўстлик мавзусини гавдалантирган ушбу комикснинг мазмун доираси тор, сўз бойлигидан деярли фойдаланилмаган. Мақсад факат дўстнинг қўнглини кўтариш каби элементар ғояни сингдиргани салбий жиҳатдир. Комикслар тартиби рақамларда ифодалангани унинг кетма-кет мантиқий боғланишини қийинлаштирган. Суратларда образларнинг қиёфа ва кайфиятлари яққол акс этмагани, хотирада муҳрланмаслигига сабаб бўлиши мумкин.

---

<sup>6</sup> Н.А.Пляцек Чтения комикса как увлечение : влияние на склонность к определённым школьным предметам. [https://e.mospolytech.ru/files/portfolio/f1\\_e10747f816f2eb4d277c631ed499a0d5\\_1517998445.pdf](https://e.mospolytech.ru/files/portfolio/f1_e10747f816f2eb4d277c631ed499a0d5_1517998445.pdf)

2019 8 сон “Мурзилка” журналида “Приключения мурзилки” (Мурзилканинг саргузаштлари) рукни остида Елена Усачева муаллифлиги Мила Лобова расмлари билан комикс тақдим этилган. Сичқон ва Мурзилка сухбати:

“Сичқон: –Жазирала, чўмилиб чиқши керак! Вой, сув қаерга йўқолди? Эххэй, ёрдам беринглар! Курғоқчилик бошланибди! Курбақалар ҳам кўринмаябти! Зудлик билан ёмғир керак!

*Мурзилка: –Ҳамма нарсанинг ўз вақт соати бор, Сичқонвой! Қачондир ёмғир ўзи ёғиб қолади!*

Сичқон: – Зудлик билан ёмғир керак! Ҳовуз қуриб қолибди. Чўмилишга жой йўқ. Курбақалар ҳам йўқолибди!, –деди Сичқонвой сеҳргарга.

*Сеҳргар: – Бу жуда осон!, –деди ва сеҳрли сўзларни айтди!*

Осмондан балчиқ сув билан бирга қурбақалар ёғилди. Мурзилка ҳайрон бўлиб сўради: –Энди кўнглинг жойига тушибими, Сичқонвой?


–Қандай кўнглим жойига тушибин, ахир бу қурбақаларку!, –дея яна норозилик билдириди. Шунда сеҳргар : –Сувни айтганингдек, ботқоқликдан олдим.... Шунда Мурзилка Сичқонвойга қараб: –Балки оддий ёмғирни кутармиз?, –дея сўрабди. Сичқонвой сеҳргардан дарёдан қурбақаларсиз сув олиб бер деб талаб қилибди. Сеҳргар яна сеҳрли сўзларни қайтарибди. Мурзилка ҳаммаси яхшиликка бўлмаётганини сезиб, ҳўрсинибди. Осмондан балиқли ёмғир туша бошлабди. Шунда Мурзилка Сичқонвойга қараб : – Эҳ, ахир айтгандимку одатий ёмғирни кутайлик деб!

Бошқа жониворлар дарё суви йўқ бўлғанидан жахли чиқиб, Сичқон, Мурзилка ва сеҳргарни таъқиб қилибди. Сичқон сеҳргардан уларни қутқаришини талаб қилса, сеҳргар мени қўлимдан энди ҳеч нима келмайди, дея жавоб берабди. Мурзилка барча жониворлардан безорилик учун узр сўрабди.

Ҳаммасини ўз ҳолига қайтишига ваъда берибди. Шунда табиий ёмғир ёга бошлабди ва ҳамма ҳурсанд бўлибди. Биргина Сичқонвой: –Оббо, а бу нимаси? Яна қанча ёмғир давом этади? Тошқин бўлиб кеттику, –дея яна ношукр бўлибди. Мурзилка дўстига :–Кел яна сеҳргардан ёрдам оламиз, деса Сичқонвой: –Йўқ, ўз вақтида тугай қолсин. Ҳамма нарсанинг ўз вақти соати ор, деб жавоб қайтарибди.”

Доим норози ва ношукр кайфиятда юрадиган, ўйламай иш қиладиган Сичқонвой, Мурзилканинг гапига кирмагани, сабр қилмагани учун бошига тушган кўнгилсизликлардан сабоқ олади. Бу комикс орқали болажонларни сабрли бўлишга, бирор нарса талаб қилиб хархаша қилмасликка ундаш мумкин. Сариқ қаҳрамон Мурзилка эса болаларнинг рамзий дўсти бўлиб ундан кўп ибратли нарсалардан сабоқ олишлари мумкин. Ҳикоянинг қизиқарли сюжети, ғоявий ва мантиқий кетма-кетлиги мос ва тушунарли. Ҳикоянинг якуни фақат яхшилик билан тугаб қолмай, қиссадан ҳисса олишга болани ундейди.

10.04.2022 йил санасида Telegram ижтимоий тармоғи онлайн ижтимоий сўровнома ўткаилди. Умумий 330 нафар иштирокчилар “Болалар матбуоти болаларга медиатаълимни ўргатиши керакми?” сўроғига ўз холис овозларини тақдим этишди.



Демак, омма медиатаълим бўйича илм ва қўниkmага талабгор. Талаб бўлган жойда амалий натижанинг қўйилиши, фаолият турининг ижобий муваффақиятига замин бўлади. Юртимиздаги болалар нашрлари ушбу муҳим масалани чуқур ҳис қилган ҳолда, масъулият билан ўз вазифаларига ёндашишлари, миллат фарзандларини жаҳондаги замондошларидан ортда қолмаган ҳолда билимли ва кенг дунёқарашли қилиб зиё улашишлари даркор.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоиз, болалар матбуоти шундай кучга эгаки, у ёш авлоднинг ҳаёти, турмуш шароитлари, уларнинг ютуқ ва камчиликларини ёритувчи воқеликка айланади. Унинг ёрдамида болалар дунёқараши ўсади, тафаккури шаклланади, маънавий, тарбиявий, ахлоқий масалаларга қаратилган таҳлилий мақолалар билан бола катта ҳаётга қадамбабадам улғаяди. Болалар матбуотига қизиқиши уйғонган қалбда ёш ижодкор авлод шакллана бошлайди. Шу аснода тахририят ва унинг аудитоиряси мақсадлари бирлашади.

“G`uncha” ва “Мурзилка” журналларининг болалар матбуотига қўшаётган хиссаси бекиёс. Бироқ, маълумот узатишда усул ва услугуб жиҳатлари, болаларни қиқзиқтиришда “Мурзилка” қўллаган турли ўйин ва жумбоқлардан ҳамда қўл ишлари учун ажратилган саҳифалардан намуна сифатида фойдаланиш ва татбиқ этиш мақсадга мувофиқдир.

Медиатаълим интерфаол ўқувчига индивидуал таъсир этадиган усул сифатида таълим жараёнинга жадал суръатлар билан кириб келмоқда. Медиатаълим ўқувчини мустақил фикр юритишга, ижодкорлик фаолият-ларини ривожлантиришга, ахборот олиш, уни қайта ишлаш умумлаштириш, хулоса чиқаришга ўргатади. Медиатаълим қанчалик мустаҳкам бўлса, ўқувчи дунёқараши, интеллектуал салоҳияти шунчалик ривожланади ва камол топади. Бу эса миллий истиқлолимиз шарофатидир. Медиатаълимнинг жадал ривожланиши атрофимиздаги ҳаётни сифат жиҳатдан ўзгартиради ҳамда

There is not one way to classify them and words could fit in various categories, but here are some common examples of stative verbs placed into four common categories. Here are some stative verb sentences using these verbs. Remember these state verbs cannot be used in the continuous tenses.

- Thoughts - I doubt she will go tonight;
- Emotions - She adores her children;
- Senses - He smells very bad;
- Possession- That bag belongs to me;

We also use stative verbs for measurements, costs, and weights, so again these are not used in the continuous tenses: He weighs 190 kilograms;

Some verbs can express both an action and a state. However, they are usually being used to convey a different type of meaning in each case. Action verbs refer to something dynamic, such as some kind of activity, rather than stative verbs, which reflect a state of mind or a mental process. Here are some examples. As you can see, the action verbs can be in the continuous tense.

State: I have a car ( = possession/ownership)

Action: I'm having a good time ( = the action of enjoying oneself)

State: I see you have a new coat ( = sense/perception)

Action: I'm seeing John now ( = the action of having a relationship)

The verbs of state in the Uzbek language according to the extra-linguistic substrate express a huge number of processes associated with natural phenomena, the formation of thinking and human behavior, etc. In the process of analyzing state verbs in the Uzbek language by their semantic components, the following lexical-semantic groups of this semantic field were identified:

- 1) verbs of a continuous state,
- 2) verbs of a state that is the result of movement,
- 3) verbs of a performance state,
- 4) the verbs of the state of motion,
- 5) the verbs of the state of skill,
- 6) the verbs of the figurative state,
- 7) the verbs of the biological state,
- 8) the verbs of the physiological state,
- 9) the verbs of the psychic state. In these lexical-semantic groups, «state» is an archisema, and «duration», «result of movement», «execution», «movement», «skill», «imagery», «biological», «physiological» and «psychic» - an integral seme within its lexicalsemantic group.

The agent actant of state verbs in the active voice with the integral seme «duration» (turmoq 'to stand', o'tirmoq 'to sit', yotmoq 'to lie'), «result of movement» (to'xtamoq 'to stop', tinmoq 'to rest', zanglamoq 'to rust'), «execution» (salqinlamoq 'to relax in a cool place'), «movement» (kuchaymoq 'strengthen', og'irlashmoq 'get heavy', tezlashmoq 'accelerate'), «skill» (ko'nikmoq, odatlanmoq 'to get used to'), «imagery» (alanganmoq 'to ignition', mixlanmoq 'to be nailed', qaqqaymoq 'stick up'), «biological» (qarimoq 'getting old', chanqamoq 'to be thirsty', gullamoq

'blooming'), «physiological» (uxlamoq 'to sleep', ozmoq 'to lose weight', charchamoq 'get tired'), «psychic» (qo'rqmoq 'to afraid', hayajonlanmoq 'exciting', g'azablanmoq 'to get angry') etc. is realized in logical entities of an objective nature.

## **References**

1. Ivanov S.N. About voice category with suffix '-gan' in Uzbek language. «Questions of Linguistic knowledge», 1957. № 2; Ivanov S.N. Notes about Uzbek language syntax. – L. 1959; Martinov V.V. Category of language. – M., 1982. p.111; Ivanova I. P., Burlakova V.V., Pocheptsov G.G. Theoretical grammar of modern English. – M. 1981. p.74.
2. Popov A. Comparative syntax in nominative, vocative, accusative cases «Philological notes», № 4-5. 1879;
3. <https://learnenglish.britishcouncil.org/grammar/b1-b2-grammar/stative-verbs>.
4. <https://www.perfect-english-grammar.com/stative-verbs.html>.

**FORMATION OF FRIENDLY RELATIONS IN PHYSICAL EDUCATION  
CLASSES FOR CHILDREN 6-7 YEARS OLD**

*F. Kholikov from Jizzakh State Pedagogical Institute*

**Resume:** This article reveals the current search for effective ways and means of forming relationships that affect the formation of socially valuable qualities of the child's personality and determine his behavior in the society of his peers; orientation of behavior.

**Key words:** relationship, humanism, personality, benevolence, responsiveness, justice, empathy.

The study of human relations, which has become, according to prominent scientists, the "problem of the century", is a key problem for social psychology. The development of social and emotional intelligence, emotional responsiveness, empathy, the formation of readiness for joint activities with peers, the formation of a respectful attitude and a sense of belonging to one's family and to the community of children and adults in preschools is the content of the social and communicative development of children.

Therefore, the study of the child in the system of his relations with peers in the kindergarten group acquires great importance and relevance, since preschool age is a particularly crucial period in education. It is the age of the initial formation of the child's personality. At this time, in the communication of the child with peers, rather complex relationships arise, which significantly affect the development of his personality.

Communication with children is a necessary condition for the mental development of the child. The need for communication early becomes his basic social need. Communication with peers plays an important role in the life of a preschooler. It is a condition for the formation of the social qualities of the child's

personality, the manifestation and development of the beginnings of friendly relations between children.

Communication with children is a necessary condition for the mental development of the child. The need for communication early becomes his basic social need. Communication with peers plays an important role in the life of a preschooler. It is a condition for the formation of the social qualities of the child's personality, the manifestation and development of the beginnings of friendly relations between children.

So in his works, the American psychologist T. Shibutani, developing this idea, says that children whose parents keep them from playing with their peers often experience difficulties in relationships in life. He wrote that only "a group of equals accustoms the child to mutual actions and severely corrects mistakes." T. Shibutani suggested that the lack of that experience of a child's communication with peers dulls the ability to understand other people.

Pedagogical and psychological studies show what a big role in shaping the relationship of children with each other can play, which for a small child is not only a school of knowledge of the surrounding world of adults, but also a school of human relations. The way of life of children in kindergarten and the peculiarities of their activities also leave a certain imprint on the relationship of children.

At present, in the theory and practice of preschool pedagogy, more and more importance is attached to children's joint activities as a means of moral education. Joint activities unite children with a common goal, task, joys, sorrows, feelings for a common cause.

Of particular importance in shaping the personality of older preschoolers are relationships that are built on the basis of goodwill. As noted by P.F. Lesgaft, the physical education of children should not be limited only to the improvement and formation of motor skills, it must also be associated with the tasks of moral education. However, to date, these opportunities have not been practically taken into

account and, therefore, they are not sufficiently realized in the motor activity of preschoolers.

The joint motor activity of children, a variety of physical exercises, ways of organizing preschoolers, emotional richness, rhythm, musicality and aesthetics of movements create ample opportunities for accumulating positive experience of interaction between older preschoolers and peers. The social orientation of the individual is manifested and formed in relationships, it is extremely important that humane relations be dominant, one of the important components of which is benevolence.

Benevolent relations are a product of the socially conditioned content of communication. Communication, being the most important social need of a developing personality, is inseparable from relationships. Their bilateral meaningful relationship is emphasized in philosophical, psychological, and pedagogical works. Communication and attitude are two interrelated and interdependent aspects of the phenomenon

“Goodwill is an attitude towards a person, focused on promoting his good, on doing good. Subjectively, benevolence is manifested in goodwill, sympathy, sympathy, beneficence. From a moral point of view, benevolence is a duty of man. Goodwill emphasizes not only the unconditional recognition in another person of his moral dignity, but peacefulness, friendliness, and readiness for fruitful cooperation are expressed.

The benevolent relations of preschoolers in the process of physical education are a general emotional-positive orientation of the child's behavior in his relationships with peers, manifested in the ability to sympathize, understand the state of peers, in readiness to provide assistance and cooperate in joint motor activity.

In modern studies, motor activity is considered as an activity aimed at physical development and motor activity, as a means of versatile influence on the child. In older preschool age, the physical abilities of children increase. Preschoolers already have a good command of most of the main types of motor actions. This makes it

possible to use physical exercises more widely for the purposeful development and education of the child's personality, enriching the culture of communication with peers.

General developmental exercises are performed by children mainly in the frontal way and in all directions. Practically no exercises are carried out in pairs, triples, subgroups without an object, with objects, with one common object (exercises with a long rope, etc.), which prevents the accumulation of valuable experience in a friendly attitude of preschoolers.

The widespread use of joint exercises will contribute to the development of cooperation, which requires the ability to agree, coordinate one's actions with children, respond positively to a mismatch in movements, etc. In the course of the main movements, situations arise that put children in front of the need to help their peers. Preschoolers can be involved in helping each other, which contributes to the development of a caring attitude towards those who need it.

It should be noted that one of the productive forms of the educational process in the system of preschool education, outdoor games and physical exercises, not only improve the health and develop the child's body, but also is a means of educating character, affect the behavior of children.

Outdoor games can be practiced at any time of the year. From one child to the whole group can take part in games, you can play with adults and without their participation

Classes with outdoor games contribute to the education in children of discipline, collectivism, determination, courage and other qualities necessary for every person.

#### **List of used literature:**

1. Smirnova E. Igry, napravленные на формирование доброжелательного отношения к сверстникам [Text] / E.O. Smirnova, V. Xolmogorova // Doshkolnoe vospitanie, 2003, № 8, p. 73-77.

2. Smirnova E. Doshkolnyy vozrast: formirovaniye dobrojelatelnixx otnosheniy [Text] E.O. Smirnova, V. Xolmogorova // Doshkolnoe vospitanie, 2003, № 9, p. 68-76.
3. Agapova I.A. Featured games for preschoolers / I.A. Agapova, M.A. Davydova. M.: ARKTI, 2008. - 124 p.
4. Varenik E.N. Fizkulturno-ozdorovitelnye zanyatiya s detmi 5-7 let. - M.: TTs Sfera, 2009. - 128 p.
5. Kojukhova N.N., Ryjkova L.A., Samodurova M.M. Vospitatel po fizicheskoy kulture v doshkolnom uchrejdenii: Uchebn. posobie dlya studentov fak. doshk. obrazovaniya high ped. uchebn. zavedeniy / N.N. Kojuxova, L.A. Ryjkova, M.M. Samodurova. - M.: Akademiya, 2002. - 316 p.
6. Goroxova M.Yu. Development of activity and self-sufficiency of pre-school children: monograph / M.Yu. Goroxova. - Samara: GOU SF GOU VPO MGPU, 2011. - 104 p.
7. Gromova O.E. Sporting games for children / O.E. Gromova. - M.: TTs Sfera, 2009. - 128 p.
8. Pedagogicheskiy slovar: [ucheb.posobie dlya studentov vuzov] / pod red. V.I. Zagvyazinskogo, A.F. Zakirovoy. - M.: Akademiya, 2008. - 344 p.
9. Stepanenkova E.Ya. Theory and methods of physical education and child development: Ucheb.posobie for stud. vyssh. ucheb. zavedeniy / E.Ya. Stepanenkova. - 2-e izd., Ispr. - M.: Izd. center "Academy", 2006. - 368 p.
9. Finogenova N.V., Reshetov D.V. Vozmojnosti podvijnyx igr v protsesse sotsialno-lichnostnogo razvitiya detey 5-6 let // Uchenye zapiski universiteta im. P.F. Lesgafta. 2012. № 8. S. 98-102.
10. Elkonin D.B. Psychology igry / D.B. Elkonin. - M.: Pedagogika, 1978. - 304 p.

11. Kholikov, F. (2020). THE IMPORTANCE OF COOPERATION BETWEEN FAMILY AND PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE FOR CHILDREN 6-7 YEARS OLD. Journal of pre-school education, (1).
12. Kholikov, F. (2021). ORGANIZATION AND CONDUCT OF COMPETITIONS FOR CHILDREN FROM 6 TO 7 YEARS OLD .: ORGANIZING COMPETITIONS FOR CHILDREN FROM 6 TO 7 YEARS OF AGE. Journal of Preschool Education.
13. Kholikov, F. (2021). 2021 METHODOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION OF CHILDREN FROM 4 TO 7 YEARS. Journal of Preschool Education, 4 (Preschool education journal).

**YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” ASARINING  
O’RGANILISHI BO’YICHA QO’SHEMCHA MA’LUMOTLAR**



**Ikbol Ismailova Olimboyevna**

*Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani 2-son umumta'lim maktabi. O'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Telefon raqam: +998888588086*

**Annatatsiya:** Ushbu maqola mumtoz adabiyotdagi tasavvufiy g'oya va timsollarga ega bo'lgan asarlar mohiyatini tushunish va izohlash , badiiy asarlardagi munosib namunalarga tayangan holda o'zida yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashga intilish ; asardagi milliy ruh, o'zbekona insoniy sifatlar hamda chigal munosabatlarda o'z hayotiy tajribasi va asar tasvirini qiyoslagan holda baho bera olish. Badiiy asar qahramoni ruhiyatini anglash va faol munosabat bildira oilsh haqida.

**Kalit so'zlar:** Adibning portreti, slaydlar, oyto'ldi nomi, arg'uvon, salohiyat, andisha ,

**Kirish:** Ulug' adib va shoir Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “ Qutadg’u bilig” turkiy tilda yaratilgan she’riy shoh asardir. Uni qomusiy asar deb atasak bo'ladi . Chunki “ Qutadg’u bilig “ da xalq hayotining barcha tomonlari o’z aksini topgan. Unda ezgulik , insonparvarlik g’oyalari ta’sirli ravishda bayon etilgan . Bu kitob juda azizdir . Bu kitobni o’quvchi va baytlarining mag’zini chaquvchi kishi kitobdan ham azizroqdir . Kitob qaysi yurtga , yo qaysi iqlimga yetib borsa , g’oyat yaxshiligidan , nihoyatda darajada ajibligidan o’sha ellarning donishmandlari , olimlari uni matlub ko’rishgan .

**Asosiy qism:** Bu kitobni yozgan kishi Balosog’unda tug'ilgan , sabr – qanoat sohibidir.Ushbu kitobni Qoshg’arda yozib tugatib , Mashriq podshohi Tavg’ochxon

huzuriga keltirgan , podshoh uni taqdirlab va e’zozlab saroyida Xos Hojiblik lavozimiga tayin qilgan . Shuning uchun u Yusuf Ulug’ Xos Hojib nomi bilan mashhur bo’lgan . Bu kitob quyidagi qahramonlari bilan qadrlidir : biri – adl , ikkinchisi davlat , uchinchisi – aql , to’rtinchisi – qanoat . Yana bularning har biriga turkcha nom berilgan . Adlga – Kuntug’di “elig” nomi berilib , “ podsho” o’rnida tutilgan ; davlatga – Oyto’ldi nomi berilib , vazir lavozimiga qo’yilgan ; aqlga – O’gdulmish nomi berilib , vazirning o’g’li o’rnida tutilgan ; qanoatga \_ O’zg’urmish nomi berilib , O’gdulmishning qarindoshi deyilgan.

Kitobda ular orasidagi suhbat munozara va savol – javob tarzida hikoya qilingan.

“ Qutadg’u bilig” da insonning qadr – qimmati bilim bilan belgilanishi , tilning fazilatlari , foyda va zararlari haqida …

Olamga odamzod sara mavjudot sifatida keldi , u salohiyat , bilim va zakovatga ega bo’ldi .

Unga tabiat aql va on ato qildi , so’zlash qobiliyatini berdi, uni andisha , xushxulq va go’zal fe’l bilan ta’minladi .

Unga bilim hadya qildi , shu tufayli inson ulug’likka erishdi , zakovatlar ato qildi , shu tufayl inson chigal jumboqlarni hal qildi .

Tabiat kimga zakovat , aql – idrok , bilim bersa , u ezgu ishlar qilishga qo’l uradi .

Bilimning buykligini va zakovatning ulug’ligini anglagin , bu ikkalasiga ega bo’lgan sara kishilar ulug’likka erishadilar .

Zakovatlilar uqadilar va bilimlilar biladilar , bilimli va zakovatlilar tilaklariga yetadilar .

Bilim haqida nimalar deyilgan , bu so’zning ma’nisini chaq , bilimli kishilardan balo – ofatlar yiroqlashadi .

Zakovat va bilimning ochqichi tildir , odamni yorug’likka boshlovchi til – ravon tilni o’rgangin .

Odamni til ulug’laydi , uni baxtiyor qiladi , uning boshiga balolar keltiradi .

Til qafasda yetuvchi arslon kabitdir , qafasdagagi g'addor vahshiy boshinga yetishi hech gap emas .

Sen o'zingning eson – omonligingni istasang , tilingdan zinhor yaramas so'zlarni chiqarmagin .

Bilib – tushunib so'zlangan so'z donolikdan dalolatdir , nodon – johilning so'zi o'z boshini yeydi .

Ko'p so'zlashdan ortiqcha naf ko'rmanmag , so'znin ko'pidan foyda ham topmaganman .

So'zni ko'p so'zlamasdan biroz oz so'zlagin , ming so'zli chigalni bir so'z bilan yechgin .Odam so'z tufayli ulug'likka erishadi , podsho bo'ladi , ko'p va ortiqcha so'z esa yuzni yerga qaratadi .

Haddidan ortiq so'zlaganlarni ezma deyiladi , shuningdek hech so'zlamaganlarni gung deb ataladi .Madomiki shunday ekan , o'rtacha yo'riqqa amal qil , o'rtacha yo'riqqa amal qilgan odam yuksaklikka erishadi .

Odam ikki narsa tufayli qarimaydi : biri yaxshi fe'li , ikkinchisi esa ezgu so'zi .Odam tug'iladi va o'ladi , uning so'zi qoladi , inson o'ladi , uning nomi mangu qoladi , buni unutma .O'zinga o'lmas mangu nom istasang , fe'lingni va so'zingni ezgu tutgin , ey dono.Odamdan odamga meros bo'lib so'z qoladi , bu meros qolgan pand – nasihatlarga amal qilinsa nafi behisob bo'ladi .

So'ngra shunday sifatlarga ega bo'lган kishi nimalarga sazovar bo'lishi haqida bahs –munozara tashkil qilinadi . O'quvchilar javobidan keyin bilim va zakovat egasi erishi mumkin bo'lган yantuqlar birgalikda tahlil qilinadi . O'quvchilar tomonidan aytilganlar , biz istagandek ravon , silliq bo'lmasligi tabiiy . Balki bu fikrlar shunisi bilan go'zalroqdir . Chunki , ular o'quvchilarning o'z fikri , o'z so'zi o'z mulohazasi bo'lganligi bilan qadrli . Mana shu harakatlar o'quvchini bora – bora fikr kishisiga aylantiradi . Fikr kishisi bo'lsh bilan birga uning taffakkuri kengayadi.

Asarning qolgan qismlarini o’rganishda mustqail fikrlashga undovchi o’ziga xos usullarni qo’llasak , tabiiyki , dars samaradorligi oshadi . egallanishi lozim bo’lgan bilim o’quvchilarning o’zlari tomonidan o’zlashtirilsa foydaliroq bo’ladi .

O’zlari bevosita ishtirok etgan bilim olish jarayoni o’quvchilarga zerikarli bo’lmaydi , malol kelmaydi .

Asar qahramonlarining o’zaro suhbatи asosida qurilgan . Yusuf Xos Hojib tasvirida Kuntug’di “qilmishlari to’g’ri , fe’li rost , tili chin , yetuk , ko’zi va ko’ngli boy , bilimli , zakovatli , hushyor , yomonlarga misli bir olov edi ”.

Oyto’ldi – vazir , ayni paytda Davlat ramzi . Uning fe’l – atvorida barcha ezgu hislatlar mujassam . Shunga qaramay , davlat alohida e’tiborni ham talab qildi . Yusuf Xos Hojib bunday mulohazalarni o’z qahramonlarini so’zlatish orqali ko’rsatib beradi .

Kuntug’di ezgu kish hech qachon o’z tabiatini o’zgartirmaydi , chunki yaxshi qiliq oq sut bilan kirsa , o’lim kelib tutmaguncha o’z tarzini buzmaydi , deb uqtiradi . Oyto’ldi butun umrini el – yurt ishiga , mamlakat ravnaqiga , yurtda tinchlik , osoyishtalik va farovonlimlkni yuksaltirishga sarflaydi . Ammo voqealar davomida vafot etadi . Aslida , bu davlatnin bebaqoligiga ishoradir .

Davlatga Oytoldi degan nomning berilishi ham ramziy – majoziy ishoralarga boy . Ular yuqoridagi matnlar mazmuniga singdirilgan .

O’gdulmish – asardagi eng faol qahramon . U – Oyto’ldining o’g’li . O’gdulmish so’zining ma’nosи o’g bilan bog’liq . U aql , idrok ma’nosiga ega . O’gdulmish “aql bilan ziynatlangan “demakdir .

Elig bilan savol – javoblarda O’gdulmish turli – tuman kasb – hunar egalarining fazilatlari haqida gapiradi . Uning bek , vazir , elchi , kotib xazinachi va boshqalar haqidagi fikrlari hayotiyligi , pand- u o’gitlarga boyligi bilan ajralib turadi .

O’zg’urmish so’zining ma’nosи “ hushyor qiluvchi ” , “sergaklantiruvchi ” degani . Uning zohid qiyofasida ko’rinishida shu ma’noga uyg’unlik bor . U behuda ishlar bilan band bo’lish, har xil mayda – chuyda orzu – havaslarga ovunib umrini behuda o’tkazib yuborishdan ogohlantiradi . Mudrab borayotgan tuyg’ularni

sergaklantiradi . Dunyoda faqat davlat yoki aql bilan bitirib bo’lmaydigan ishlar ham borligidan , inson ko’nglida nozik tuyg’ular mavjlaninb turishidan xabar beradi, shu tuyg’ularga beparvo bo’lmaslikka undaydi , umrini behuda o’tkazmaslik uchun hushyorlikka chaqiradi .

Bir obrazga turli o’xshatishlarni keltirib izohlash ham “ Qutadg’u bilig ” badiiyatiga xos xususiyatdir .

Masalan , kishining yuzi suyak , oy , osh , arg’uvon , bo’zga o’xshatiladi . Suyak or – nomussiz kishiga nisbatan qo’llanadiki , bu bilan shoir uning hech kimga keraksizligi , tashlandiq narsa barobaridagi shaxs ekanini uqtiradi . Oy esa Sharq adabiyotida yuz go’zalligining ramzidir . Yuzning oshga o’xshatilishi kishi tashqi ko’rinishining yoqimligiga ishora , Arg’uvon – qizil yuz timsoli . Qizl yuz esa go’zallikning o’ziga xos “ o’lchov birligi” dir . Bo’z qo’rqib ketgan yoxud noqulay ahvolda qolgan odam yuzining belgisi sifatida keladi .

Bu hodisani lashkarboshiga nisbatan qo’llangan tashbehtar silsilasida ham ko’rish mumkin . ularda lashkarboshining kuchliligi , yovga dahshat solishi arslonga , doimiy hushyorligi zag’izg’onga , baquvvatligi qoplonga , hujumkorligi va dushmanha hamlasi to’ng’izga , mardanovarligi bo’riga , jang taktikasidagi mohirligi , hiyla va tadbirkorligi tulkiqa , shiddati ayiqqa, qasoskoligi qo’tos va tuya erkagigerkagigi , tunlari hushyor va bedorligi ukki- bo’yo’g’liga o’xshatiladi .

**Xulosa:** Bularning hammasi shuni ko’rsatadiki , “Qutadg’u bilig” – turkiy tildagi dastlabki yirik yozma doston , o’zida turkiy xalqlar og’zaki ijodi an’analarini juda kuchli ta’sirini saqlagan .

Adib hikmatlari o’qib bir narsaga amin bo’lasiz : U hayotni sevadi, umrning har bir daqiqasini qadrlaydi , g’animat biladi . Shuning uchun ham har qanday og’ir kunlarda yashashga intiladi , izlanishdan to’xtamadi , kelajak avlodga o’z tajribalarini pand – nasihatlarini yetkazishga intildi .

### **Foydanilgan adabiyotlar ro’yhati.**

1. A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T., 1972.
2. B.To`xliev. O’zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T., 2000.
3. 11-sinf adabiyot darsligi
4. I.A.Karimov. Istiqlol va ma`naviyat. Toshkent, 1994.
5. R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasi. Buxoro, 2001.Qutadg’u bilig haqida aytgan fikrlari.

**KASR HAQIDA TUSHUNCHA VA KASRLARNI O'QITISHDA YANGI  
INNOVATSIYALAR DAN FOYDALANISH**

**Xaydarova Tozagul Gafurovna**

*Andijon viloyati Izboskan tumani Yangi avlod MFY 2-uy.*

*Izboskan tumani XTB ga qarashli 14-umumiy o'rta ta'lim maktab*

*1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kasr haqida tushuncha va kasrlarni o'qitishda yangi innovatsiyalaridan foydalanish, miqdorlar ustida arifmetik amallar, miqdorlarning ulushlari bilan tanishtirish metodikasi, bir xil maxrajli kasrlar ustida amallar va oddiy kasrlar va uni o'qitishning ahamiyati haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** kasr, arifmetik amal, miqdorlarning ulushlari, bir xil maxrajli kasr, oddiy kasr.

**Kirish:**


Kasr tushunchasini o'rganish ham sonlar arifmetikasi bilan geometriyaning elementar elementlari o'rtasida bog'lovchi bo'lib xizmat qiladi. Kasr tushunchasi matematikada muhim o'rinn tutuvchi va boy amaliy qo'llanishga ega bo`lgan miqdor tushunchasi bilan uzviy bog`liqdir. Kasr tushunchasi narsalarni teng bo'laklarga bo'lish, parchalash, yejish kabilardan kelib chiqishi mumkin.

Kasrlarning asosiy tushunchalari maktabgacha yoshdan boshlab beriladi. Masalan, olma, tarvuz, bodring, non va hokazolarni bir necha bo'laklarga bo'lib ko'rgan va asosiy tushunchalarni olgan. Shu maqsadda bolalarni o'z ulushlari, yozish, solishtirishga o'rgatish, sonning kasr va kasr sonini topishga oid masalalar yechish, masalalar ko'rsatib boriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Kasrlarni o'rganishda ko'rsatmalilik va ko'rgazmali quollar masalasi alohida ahamiyatga ega. Kasrlarni o'rganishning ushbu bosqichida o'qitish, ayniqsa, to'liq

vizual bo'lishi kerak. Bu ko'rgazmalar orasida qalin qog'ozdan kesilgan mevalar, qovunlar, tarvuzlar, lentalar, turli o'lchamdagи doiralar, kvadratchalar, turli shakl va o'lchamdagи to'rtburchaklar bor. Ushbu fanlarni ming qismga bo'lish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni ko'proq o'tkazish kerak. Bolalarni turli qismlarning nomlari va shakllanishi bilan tanishtirgandan so'ng, ularga har bir qismni qanday aniqlash kerakligini tushuntirish kerak.



$$\frac{1}{2}, \frac{1}{4}, \frac{1}{3}, \frac{1}{8}$$

$\frac{1}{2}, \frac{1}{4}, \frac{1}{3}, \frac{1}{8}$  va boshqa ko'rinishdagi yozuvlar bilan "surat" va "mahraj" terminlarini kiritmasdan tanishtiriladi. O'quvchi ikkidan bir ulushni belgilashni talab qilsa, buning uchun o'quvchilar chiziq chizishadi va chiziq ostiga ikkini, chiziq ustiga birni yozishadi. Bolalarni ulushlarini yozishi bilan "ulushlar" mavzusini birinchi darsdayoq tanishtirish lozim. Figuralarni teng bo'laklarga amaliy bo'lish asosida ulushlarni taqqaolash ham o'tkaziladi. "Ulushlar" mavzusiga asoslangan holda kasrlarning hosil bo'lishi bilan 4-sinfda tanishtiriladi. Bu yerda ham ko'rgazmali qurol bilim berilishining bosh mezoni bo'ladi. Narsalarni, shakllarni va boshqa atrofdagilarni teng bo'laklarga bo'lish va shu bo'laklardan bittasini, ikkinchisini, uchinchisini,... olish masalasi, uni ifodalash va yozish asosiy vazifa bo'ladi. Bunda kasr, kasrlarning surati, mahraji kabi terminlar bilan tanishtiriladi.

### Natijalar:

Kasrlarni yozishni bajarishda quyidagi qoidaga amal qilish eslatiladi.

$$\frac{1}{2}, \frac{1}{4}, \frac{1}{3}, \frac{1}{8}$$

Chiziq ostidagi son kasrning maxraji deb ataladi va butun narsaning nechtaga teng ekanligini ko'rsatadi. Kasrga yozilgan raqam karning tasviri

deb ataladi va teng qismlardan nechtasi olinganligini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktabda maxraji 10 dan oshmaydigan kasrlar hisobga olinadi. Imkon qadar turli xil raqamlardan foydalangan holda, talabalar boshqa maxrajlar bilan ham tanishadilar.

Miqdorlar kasrlar bilan bevosita bog'liqdir. Tabiatda uzunlik, vazn, vaqt va hokazo kabi miqdorlar mavjud. Ularni har qanday teng qismlarga bo'lish mumkin. Bunday miqdorlarni bir birlikda o'lchash har doim ham butun sonlarni keltirib chiqarmaydi.

O'quvchilar butun sonlar ustida bajariladigan amallar qoidalarini takrorlash bilan bir qatorda barcha hisob-kitoblarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda og'zaki bajarishga, barcha amallarni tez va aniq bajarishga odatlantirishlari kerak.

Kasrlarni o'rganishning birinchi bosqichidan boshlab, o'quvchilar kasr hisoblarini, shuningdek, boshqa yozuvlarni yozishni talab qilishlari kerak.

- a) Surat va mahrajlar bir xil kattalikdagi raqamlar bilan yozilishi kerak;
- b) Kasr chizishi albatta gorizontal bo'lib surat va maxrajdan barobar masofada turishi, kasr hadlari chiziqqa tegmasligi kerak

**Muhokama:**

O'nli kasr butun son bo'limgan sonlar ustida amallarni bajarish kerak bo'lganda ishlatiladi. Bu mantiqsiz tuyulishi mumkin. Ammo bu turdagи raqamlar ular bilan bajarilishi kerak bo'lgan matematik operatsiyalarni sezilarli darajada osonlashtiradi. Bu tushuncha vaqt o'tishi bilan, ularning yozishlari tanish bo'lganda va o'qish qiyinchilik tug'dirmaydi va o'nli kasrlar qoidalari o'zlashtiriladi. Bundan tashqari, barcha harakatlar allaqachon ma'lum bo'lgan takrorlanadi, ular natural sonlar bilan o'rganiladi.

Barcha matematik kasrlar ikkita katta raqamga bo'linadi: oddiy va o'nlik. Ulardan birinchisining xususiyatlari oldingi xatboshida tasvirlangan edi, shuning uchun endi ikkinchisiga e'tibor qaratish lozim.

Sonning kasrini topishga doir masalalarni yechishda kasrning mazmuni ochiladi va mustahkamlanadi. Bunday masalalarni yechishga sonning bir ulushini

topishga doir masalalarni yechish malakasi asos bo'ladi. Bu malakani tarkib toptirish ikkinchi sinfdan boshlangan edi. Sonning kasrini topishga doir masalalarni yechish mos ko'rsatmalilikka asoslangan bo'lishi kerak.

**Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda o'quvchilar oddiy mavzulardan murakkab mavzularga o'tishlari zarur. Shundagina dars tushunarli va qiziqarli bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda kasr tushunchasini shakllantirish 3-sinfdan boshlab kasr tushunchasi bilan olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda kasr tushunchasini olma, tarvuz, qovun kabi ko'rgazmali qurollar, geometrik shakllar: doira, kesma, kvadrat, to'rtburchaklarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinflarda kasr tushunchasi o'quvchilarni qismlarga bo'lib o'rGANISHGA, taxmin qilishga yordam beradi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ismoilova D. Va boshqalar “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” Ma'ruzalar matni Termiz 2005.
2. Jumayev M.E. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'uloti” Toshkent: “Yangi asr avlod” 2006.
3. Jumayev M.E., Tojiyeva Z.G. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” Toshkent fan va texnologiya 2005.
4. Bekboyeva N.M., Adambekova G.A. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” Toshkent o'qituvchi 2003.
5. Bikbayeva N.U, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.) Toshkent. —"O'qituvchi" 2003.
6. Axmedov M. , Abduraxmonova N., Jumayev M.E. Matematika darsligi metodik qo'llanma.Toshkent. —"Sharqr" 2005.

**JALOLIDDIN RUMIY MUHAMMAD AL - BALXIY QALBLARGA  
OTASH SOLGAN ALLOMA**

**Aslanov Asatillo Ekramovich**

*NavDPI, Fakultetlararo chet tillari kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ota-bobolari asli Xorazmlik bo lgan Jaloliddin Rumiy Muhammad al- Balxiy (1207- 1273) shoir, mutafakkir va mavlaviylar tariqatining norasmiy shayxining ijodiga va diniy aqidalarga fikr va tuyg'ularni zanjirband etuvchi urflarga qarshi kurashgani haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so`z va iboralar:** tariqat, tasavvuf, diniy mazhab, diniy aqida, ruh dialektikasi, ro'yo va haqiqat, Xizr chashmasi, falsafiy qarashlar, haqiqat nuri, umumbashariy zot, moddiy va ma`naviy hayot.

Ota-bobolari asli Xorazmlik bo lgan Jaloliddin Rumiy Muhammad al- Balxiy (1207- 1273) shoir, mutafakkir, mavlaviylar tariqatining norasmiy shayxi edi. U tug'ilishidan ruhiy quvvat sohibi bo'lgan. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida yozilishicha, Mavlono Muhammad Jaloliddin Rumiy olti yoshida ekanida uylarinining tomida o'z tengqurlari bilan o'ynab yurar edi. Tenqurlaridan biri unga: "keling birga tomdan sakraymiz", - deydi. "Bu it va mushuklarning ishidir. Agar sizning joninggizda quvvate bolsa, osmon tomiga sekreli" deydi va shu holatda tomdan havoga ko'tarilib, ko'zdan g`oyib bo'ladi. Bolalar iztirobdan qichqirishib qoladilar. Bir lahzadan keyin Jaloliddin Muhammad yig'lab o'sha tomga tushadi va deydi: "Men sizlarga u so'zlarni aytib turganimda yashil kishvatlig'lar meni osmonga eltdilar, ajoyib malaklarni ko'rsatdilar, sizlarni yig i faryodinggiz ko'kka chiqqach, yana olib tushib qo`ydilar."

Tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi. Arab, fors turkiy tillarda ijod qilgan Jalolidin Rumiyning tasavvuf olamiga kirib kelishi Shayx Fariddin Attorning bashorati bilan bo'lganini Husomiddin Chalabiydan tortib, Davlatshoh

Samarqandiygacha bir ovozdan tasdiqlaydilar. Shoirning o`zi ham bir baytida “Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo`lsa, Shams Tabriziy tisim kalitn tutqaz-di “ degan. Ka`ba ziyoratiga yo'l olgan Bahouddin Valad va uning o'g'li Nishopurga yetganidan xabar topib, Shayx Attor ziyoratchilarning qarshisiga chiqadi. O`sipirinning suhbatidan mammun bo'lib, unga o'zining "Asrornoma" kitobini taqdim etadi va otasiga qarata: "O'g'lingiz tez orada olamdagি barcha kuyganlar qalbiga otash soladi, deb bashorat qiladi. Mavlono Rumiy umr bo'yi diniy aqidalar istibdodiga qarshi inson ruhi ekanligini himoya qilgan, irqi, tili va diniy mazhabidan qat'iy nazar insonlar tengligini tashviq qilgan. U diniy aqidalarga fikr va tuyg'ularni zanjirband etuvchi urflarga qarshi kurashgan. U tiyrak va hushyor ko'z bilan dunyoga nazar soladi, insonni qanday bo'lsa, shunday olib o'rganadi, inson qalbi to'ridagi eng nozik, eng inja, eng yashirin sirlarni oshkor etadi, ruhimiz iqlimlaridagi o'zimiz sezmagan qonuniyatlar, zaruriyatlarni ko'rsatib beradi. Jaloliddin Rumiyning ilmiy va adabiy merosi g'oyat katta. U "Devoni kabir". "Masnaviy-ma'naviy" "Maktubot", "Fihi mo fixiy" (Ichingdagи ichindadur") kabi asarlarni yaratgan." Ichindagi ichindadur" asari inson haqida. Unda ruh dilektikasi, inson mayllari tushuncha tasavvurlari, ehtiyoj va talablari, iztirob va qiyonoqlari, ziddiyatlar va muvofiqliklar, kurash va g'alaba, yo'qlik va borliq, ro'yo va haqiqat, jism va jon haqida bildirilgan fikrlar chuqur va yorqin ifodalangan. Asar insonni fikrlashga. fikrlash orqali o'zligini anglashga, o'zligi orqali haqni- Yaratganni tushunishga undaydi. “Makotib” muallifning zamondoshlari va ustozlari bilan bo`lgan turli yozishmalari va maktublaridan iborat . Rumiy ijodi yuksak badiiyat bilangina emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta`sir kuchiga ega. Uning tabiat va jamiyat hodisalarining doimiy o`sishi, o`zgarishda ekani, eskini yo`qotib , yangining paydo bo`lishi – “dunyoning ziddiyatlar birligiddagi ziddiyatlar jangi”dan iboratligi to`g`risidagi qarashlari, nemis faylasufi Gegilning e`tiroficha, uning dialektik metodini yaratishga asos bo`lgan.

Mashhur nemis shoiri Gyote fikricha jahon she'riyatidagi yetti yulduzning hammasi sharqlik shoirlardir. Ana shu yetti yulduz qatorida Sa'diy, Hofiz. Jaloliddin

Rumiy, Navoiyni tilga olib o'tar ekan: "Men ularni soyasiga ham arzimayman", - deydi va Rumiy haqida shunday yozadi: " Rumiy ijodi Xizr chashmasi. Undan hamisha musaffo hayot nafasi ufurib turadi. Bu ruh va ijod manbai, sevgi va qo'shiq saltanatidir".

Haqiqatdan ham, Rumiyning g'azal va ruboilyari o'ta maroqli. Ularda nafaqat falsafiy qarashlar, balki samimiy his-tuyg'ular bayon etilgan. Oq'igan kishini go'zalikka oshno etib, insonni o'ziga tanishtiradi:

Jonim berayin .ol uni, jondin kechma.  
Dildan kechayin, ol. jahondin kechma.  
Sen o'qsen-u men esam kamonmen hanuz,  
Ey o'q, sabr ayla, kamondin kechma  
Men o'lsmag agar, boshimda giryon bo'lmgan,  
Jononima topshiring-u nolon bo'lmgan.  
Jonsiz u labimga lab qo'yib jononim  
Jon menga ato aylasa hayron bo'lmgan.  
Ey do'st azizlarim, judolik etmang,  
Ko'p hoyu havas birla xatolik etmang.  
Bir jumlada so'zlar kabi mardona turing.  
Amr o'ldi vafoki bevofolik etmang.

Jaloliddin Rumiy uchun muhabbat, vafo - butun borliqni harakatga keltiruvchi kuch edi. Uning fikricha, don ham, maysa ham, jonivor ham seva oladi. Lekin ular faqat tana va terisi bilan sevsaga, inson jismi, aql idroki, xayoli, xotirasi bilan sevishga qodir. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy ma`naviy” – 25700 baytdan iborat bebahotasavvufiy – ishqiy asarida yer-u ko`kning sarvari bo`lgan Olloh karimni va uning zaminidagi xalifasi Hazrari insonni ulug`laydi:

Ul yor havasida dil rubobdir, rubob.  
Ishq o`tida qovrilib jon kabobdir, kabob

Dardim eshitib, etsa sukul dildorim,  
Shu jimligi menga ming javobdir, javob

Rumiyning salobati shundaki, u buyuk shoirlik maqomiga ega bo`lib, turkiy olamga tanilgan. Islom dinining barcha oqimlari va boshqa dinlar uchun yagona g`oyani ilgar surib, unda Yaratganga bo`lgan muhabbatni, uning kuchiga bo`lgan e`tiqodni, niyat va ishlarning pokligini tarannum etgan. U shunday yozgan ” Yo`llar turli bo`lishi mumkin, ammo yakuniy maqsad yagona – Allohning oldiga borish“

Mavlononi so'ngi manzilga kuzatishga kelganlar orasida turklar, xurosoniyalar, yunonlar, armanlar, provaslavlari va yahudiylar ham bo`lgan, hamma shoir bilan vidolashadi. Boshqa din vakillaridan biri shunday deydi: " Qo`yosh Yer yuzini yoritganidek, Mavlono haqiqat nuri ila butun bashariyatni munavvar etmish. Quyosh hammaning mulki." Rumiy qalblarga otash solgan ana shunday umumbashariy zot bo`lgan.

Jaloliddin Rumiy yoki Mavlono Rumiy nomi bilan mashhur bo`lgan bu zot dunyoning ulug` donishmandlaridan biri, benazir shoir va betakror mutafakkir, valiy inson bo`lganlar. Mavlononing asarlarida insonning ham moddiy, ham ma`naviy hayoti uchun zarur bo`lgan o`gitlar mukammal badiiy ifodasini topgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jaloliddin Rumiy. “Masnaviy ma`naviy” forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2005.
2. Jaloliddin Rumiy. “Ma`naviy masnaviy”. Qulliyot. Tarjima sharhi bilan. Tarjimon va sharh, muallifi Asqar Mahkam. Toshkent, “Yangi avlod”, 2007.
3. Islom tasavvufi manbalari. Ilmiy majmua. Tuzuvchi, so`zboshi va izohlar muallifi filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev „O`qituvchi nashriyot va matbaa ijodiy uyi“. Toshkent, 2005

**MILLIY O’QUV DASTURI ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINFLARDA  
ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI FANINING O’QITILISHI**

**Sarvinozxon Karimova**

*Andijon davlat unversitetining, Pedagogika instituti o’qituvchisi*

**Annotatsiya**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minalash maqsadida “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”<sup>1</sup> qabul qilindi. Bu mamlakatimizda davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirishga xizmat qiladi. Milliy o’quv dasturining qabul qilinishi ta’lim tizimidagi kata burilish yasalishiga asos vazifasini o’tamoqda.

**Kalit so’zlar:** Milliy o’quv dasturi, ona tili va o’qish savodxonligi, kompetensiya, savod o’rgatish.

**Annotation**

Ensuring the implementation of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 "On radical measures to enhance the prestige and status of the Uzbek language as the state language" Development of "Uzbek language in 2020-2030" and a language policy plan ". It serves to directly address the legislation on public authorities and administration of the state does. National enrollment may result from a floor shift in the curriculum in the education system.

**Keywords:** National Curriculum, Mother Tongue and Reading Literacy, Competence, Literacy.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV Toshkent shahri, 2019 yil 21 oktyabr O‘za

Respublikamiz uzlusiz ta’lim tizimida umumiy o‘rta ta’lim asosiy tayanch bosqich bo‘lib, bu bosqichda o‘zbek tilidan o‘quvchilarga kundalik ijtimoiy hayotda davlat tilida og‘zaki va yozma muloqot olib bora olishlariga qaratilgan tayanch bilimlar beriladi va o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida o‘quvchilarda o‘zbek tili bo‘yicha egallangan bilim va ko‘nikmalarni muloqot faoliyati jarayonida qo‘llash malakasi shakllantiriladi Bugungi kunda ta’limning eng asosiy tayanch bo‘g‘ini hisoblanuvchi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi va “Milliy o‘quv dasturi” deb nomlanishining o‘zi bizga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga o‘zbek tilini intensiv o‘rgatishni ta’minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.<sup>2</sup>

Shu paytgacha Ona tili va O‘qish fanlari alohida o‘qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qoltingan holatda tashkil etiladi.

O‘qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she’rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo‘lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo‘ladi. Shu paytgacha ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning

---

<sup>2</sup>. Zilola Madatova Milliy o‘quv dasturi: tahlillar va takliflar yoxud yomg‘irdan qochib, do‘lga tutildikmi? Xalq ta’limi. Umumiy o‘rta ta’lim 28 / 07 / 2021

grammatikasini o‘rgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko‘proq urg‘u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o‘qituvchilar uchun “O‘qituvchi kitobi”, o‘quvchilar uchun esa “Mashq daftari” ham bo‘ladi. Eski darsliklar til strukturasini o‘rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko‘ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg‘u berilgan. Ya’ni asosiy e’tibor so‘z, uning ma’nolari, o‘rindoshlari, qo‘llanish o‘rinlari, lug‘at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to‘ldiradigan, o‘zi izlanib topishga qaratilgan nostandard mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og‘zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta’lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishslashda muallifning so‘z qo‘llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.<sup>3</sup> Uzoq yillar mobaynida o‘qitilgan ta’lim tizimining o‘zgarishi, eng avvalo, boshlang’ich sinf o‘qituvchilaridan o‘zgarishni, yangi ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvni, o‘qitish tizimiga yangicha yondashuvni talab qiladi. Buning uchun ustozlar ushbu dasturga o’zlari tayyor bo’lishlari, so’ngra buni o‘quvchilarga tadbiq etishlari zarur.

Milliy o‘quv dasturi (MO‘D) nima? Umumiyl o‘rta ta’limning MO‘D o‘quv me’yoriy hujjatlari: o‘quv reja va fanlarning o‘quv dasturlari, o‘qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, darsliklar, o‘qituvchilar uchun qo‘llanma, O‘qituvchi kitoblari, o‘quvchi ish daftari, o‘quv-metodik materiallari ta’lim resurslarini (shu jumladan texnik va ilmiy manbalarni) ishlab chiqish, takomillashtirish va rivojlantirish uchun asos bo‘ladi.<sup>4</sup> U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradi.

<sup>3</sup>. <https://telegra.ph/Yangi-Milliy-oquv-dasturi-asosida-tayyorlanayotgan-Ona-tili-va-oqish-savodxonligi-darsligi-talimga-qanday-yangiliklar-olib-kirad-05-10>

<sup>4</sup>.[https://www.google.com/search?rlz=1C1GGRV\\_enUZ990UZ990&q=milliy+o%27quv+dasturi+pdf&sa=X&sqi=2&ved=2ahUKEwizsIrXj533AhVCuJ](https://www.google.com/search?rlz=1C1GGRV_enUZ990UZ990&q=milliy+o%27quv+dasturi+pdf&sa=X&sqi=2&ved=2ahUKEwizsIrXj533AhVCuJ)

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapishtirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqeа-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. Adabiyot so‘z san’atidir, shu sababli ona tilini puxta o‘zlashtirmasdan turib, adabiyotning go‘zalligi va qudratini anglab bo‘lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo‘lgan asosiy masala o‘quvchida so‘zga qiziqish va e’tibor hissini muntazam sur’atda o‘stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqeа-hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi. Bu bilan o‘quvchi voqeа-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi ona tili va o‘qish savodxonligi fanini boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lagan holda o‘qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘laydi va o‘quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Misol qilib keltirishimiz mumkinki, 1- sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi mavzullar izchillikda tuzilgani, milliyligimizga alohida urg‘u berilgani, fanlararo integratsiyaning mavjudligi bilan xarakterli. 1-mavzu: “Men, sen, u va ular” deya nomlanib, o‘quvchiga, avvalo, o‘zining kim ekanligi anglatilib, atrofdagilarga qanday murojaat etishlari, oila a’zolari, o‘zi va oilasini boshqalarga qanday tanishtirish bir tartibda berib borilib, Xudoyberdi To’xaboyevning “Sariq devni minib” asaridan olingan “Hoshimjonning oilasi” matni orqali o‘quvchida badiiy asar haqidagi boshlang’ich tushunchalar berilib, bolalarda badiiy asar o‘qishga

qiziqishni oshirish bilan bir qatorda ta’rif va tavsif berish, kasblar haqida ma’lumotni o’rganadilar. Og’zaki matn tuzishlari bilan bir qatorda mashqlar uchun ajratilgan daftarlariiga ham oilasi haqida ma’lumot yozishni o’rganadilar. Bunday matnlardan foydalanish o‘quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o‘rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi. Yosh avlod ma’naviyatini rivojlantirish o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an’ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar (“Navro’z”, “Arafa”, “Lanka” matnlari), jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘sghan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Til o‘rganishda uzlusiz ta’limning boshlang‘ich va umumiyligi o‘rtacha bosqichlarida til ta’limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va, muhimi, umumdidaktik va o‘ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.<sup>5</sup>

Boshlang‘ich ta’limning ona tili fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o‘quv dasturida 1-4-sinf o‘quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarning savodxonligini ta’minalash, ularni og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq

---

<sup>5</sup> Milliy o‘quv dasturi

me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o‘quv dasturi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish.
2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish.

Savodga o‘rgatish davri 2-sentabrdan to dekabr oyining oxirigacha bo‘lgan muddatni, ya’ni ikki o‘quv choragini qamrab oladi. Savodga o‘rgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta’lim savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib (analitik-sintetik) tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko‘ra matndan gap, gapdan so‘z, so‘zdan bo‘g‘in va tovush, yoki aksincha, tovush > bo‘g‘in > so‘z > gap > matn uzviy aloqada butundan bo‘lakka, bo‘lakdan butunga qarab tahlil-tarkib qilinadi. Bu esa o‘quvchilar tafakkur faoliyatini onglilik, tushunarilik, mantiqiylilik, didaktik mezonlar asosida rivojlantirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang‘ich ta’limning ilk savodga o‘rgatish davridanoq, o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e’tibor qaratiladi. "Alifbe" darsligida berilgan: yangi so‘zlar, matn, kichik hikoya va she’rlardan foydalanib, o‘quvchilarni so‘z ma’nosini bilan atroflicha tanishtirishda, she’riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e’tibor beriladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarni bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirib borishga, ularni mustaqil o‘qishga, o‘qituvchi va ota-onalar yordamida badiiy o‘qishga qiziqtirish, nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang‘ich ta’limning ilk savodga o‘rgatish davridanoq, o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tili erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olish, kishilar bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.<sup>6</sup>

Inson uchun nutq bu uning butun turmush tarzi va hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ajralmas qism hisoblanadi. Nutq insonning ichki olamini ochib bera oladigan yagona

---

<sup>6</sup><https://fayllar.org/ona-tili-fanidan-oquv-dasturi-1--2-4-sinf-uqtirish-xati.html>

yo‘l hisoblanadi. Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go‘zal, ifodali bo‘lishiga yordam beradi. O‘quvchilar nutqini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e’tiborli bo‘lishi lozim. Birinchidan, o‘quvchi nutqida fikrning mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta’sirchanligi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqeа-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to‘g‘ri baho bera olish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. Nutqning mantiqan to‘g‘riliги fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog‘langanligi, mavzudan chetga chiqmaslik, hukm va xulosalar asosli bo‘lishi lozim.

Avval Alifbe saboqlari tugatilib, o‘quvchilar harf taniganlaridan keyin ona tili va o‘qish fanlarini o‘zlashtirishni boshlar edilar. Milliy o‘quv dasturiga binoan esa ikkala fan birlashtirilib, o‘qish savodxonligi darsida o‘qib tahlil etilgan mashqlar ona tili soatida yoziladi. Buning uchun esa alohida daftarlар ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘sса daftarda mashq uchun ajratilgan kataklarni berilgan kalit so‘zlar yoki ishoralar orqali to‘ldirib chiqadilar. Jadval va boshqotirmalarni esa rasmlar vositasida javoblarini izlab topadilar. Ushbu darslar bosqichli izchillik tamoyili asosida olib boriladi. Har bir amalga oshirilgan tahlil keyingi tahlil uchun zamin yaratishi, boshqacha aytganda, berilgan bilim keying bilimning muvaffaqiyatlар egallanishini ta’minlashi lozim. Masalan, darslikdagi matnni turli topshiriqlar asosida o‘qitish, o‘quvchilar lug‘at boyligi ustida ishslash, matnning qismlari yuzasidan savol-javob o‘tkazish matnni to’liq badiiy hikoyalashga o’rgatadi.<sup>7</sup>

Ushbu matn va mashqlar vositasida o‘quvchilar olam va odam haqida, uni o‘rab turgan tabiat va atrof- muhit, ajdodlar merosi, o‘tmish va kelajak haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

---

<sup>7</sup> Hilola Boqiyeva, Nazira Axmedova, Nodira Azizova. Savodga o’rgatish darslari.(Alifbe) “Extremum-Press” nashriyoti. Toshkent-2014

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent shahri,2019 yil 21 oktyabr O‘zA
2. Zilola Madatova Milliy o‘quv dasturi: tahlillar va takliflar yoxud yomg‘irdan qo‘chib, do‘lga tutildikmi? Xalq ta’limi. Umumiyl o‘rtalama 28 / 07 / 2021
3. <https://telegra.ph/Yangi-Milliy-oquv-dasturi-asosida-tayyorlanayotgan-Ona-tili-va-oqish-savodxonligi-darsligi-talimga-qanday-yangiliklar-olib-kirad-05-10>
- 4.[https://www.google.com/search?rlz=1C1GGRV\\_enUZ990UZ990&q=milliy+o%27quv+dasturi+pdf&sa=X&sqi=2&ved=2ahUKEwizsIrXj533AhVCuJ](https://www.google.com/search?rlz=1C1GGRV_enUZ990UZ990&q=milliy+o%27quv+dasturi+pdf&sa=X&sqi=2&ved=2ahUKEwizsIrXj533AhVCuJ)
5. Milliy o‘quv dasturi
6. <https://fayllar.org/ona-tili-fanidan-oquv-dasturi-1--2-4-sinf-uqtirish-xati.html>

**ASOSIY MINERAL O'G'ITLAR MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH**

**Rasulova Saidaxon Toxirovna**

*Andijon viloyati Asaka tumani 35-umumiy o'rta ta'lif  
maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada asosiy mineral o‘g‘itlar mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish, almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimi o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasi, qishloq xo‘jaligi agrokimyo va agrotuproqshunoslik ta’lim yo‘nalishi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** mineral o‘g‘it, almashlab ekish, o‘g‘itlash tizimi, agrokimyo, agrotuproqshunoslik.

**Kirish:**

Yer shari yuzasining 10 % ga yaqin qismiga qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladi. Ekin maydonlarining bundan kengaytirishning iloji yo‘q. Ammo sayyoramiz aholisi to‘xtovsiz o‘sib bormoqda, ularni oziq-ovqat bilan ta’minalash uchun hosildorlikni yanada oshirish zarur. Buning eng muhim yo‘llaridan biri mineral o‘g‘itlardan foydalanishdir. O‘g‘it — bu o‘simliklar oziqlanishini yaxshilashga va tuproq unumdarligini oshirishga mo‘ljallangan modda.

Mineral o‘g‘it - deb, tarkibida o‘simlikni rivojlanishi va tuproq unumdarligini oshirish uchun zarur bo‘lgan element saqllovchi, barqaror va yuqori hosil olish maqsadida foydalanadigan tuzlar va boshqa anorganik, sanoat va qazilma mahsulotlarga aytildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

O‘g‘itlarning xususiyatlari va tuproq bilan o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘simliklarning oziqlanishi uchun qulay sharoit yaratish hamda muayyan tuproq - iqlim sharoitlari uchun o‘g‘it qo‘llashning samarali me’yor, usul va muddatlarini

belgilashdir .Fanning vazifasi – O’simliklar oziqlanish jarayonida moddalar almashinushi va tuproqdagi oziq moddalar dinamikasini o’rganish, hosil miqdori, mahsulot sifati va tuproq unumdarligini oshirishda o‘g‘itlardan oqilona foydalanishni tashkil etishdir.

Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimi o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- o‘simliklarning kimyoviy tarkibi, o‘simliklarning ildizdan oziqlanishining nazariy asoslari; tuproqlarning turlari va tiplari; oziq moddalarning dehqonchilikda aylanishi va agrokimyoning ekologik muammolari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

- mineral va organik o‘g‘itlarning turlari, olinishi xossalari ishlatilishini; - o‘simliklar oziqlanishini tuproq va o‘simlikning kimyoviy tahlil asosida aniqlashadi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari tarkibidagi oziq moddalar va zararli moddalar miqdorini kimyoviy tahlil orqali aniqlay olishdek ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

- asosiy ekinlarni o‘g‘itlash tizimini; o‘g‘itlarni saqlash tashish, tuproqqa solish uchun tayyorlashni bilishi va qo‘llay olishi, o‘g‘itga bo‘lgan talabni hisoblash; asosiy o‘g‘it turlarini farqlash; o‘g‘itlarni ekinlarga qo‘llash bo‘yicha malakalarga ega bo‘lishi kerak.

### **Natijalar:**

O‘g‘itlash tizimi almashlab ekishning maksimal samaradorligini, barcha ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishni, tuproq unumdarligidan ratsional foydalanishni va o‘g‘it qo‘llashda barcha sharoitlarni agrokimyoviy va iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lishni ta’minlashga doir masalalarni hal etish kerak.O‘g‘it qo‘llash tizimiga alohida talablar qo‘yiladi.Ekinlardan olinadigan hosilning qariyb yarmi mineral o‘g‘itlar hisobiga olinadi. O‘g‘itlash tizimi odatda uzoq muddat davomida reja asosida o‘g‘it kiritish uchun ishlab chiqiladi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarishda o‘g‘itlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jaligi agrokimyo va agrotuproqshunoslik ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar «O‘g‘it qo‘llash tizimi» fanining rivojlanish tarixi,o‘simliklarning ildizdan oziqlanishini nazariy asoslari va o‘g‘itlardan to‘g‘ri foydalanishda tuproqning roli, oziq moddalarning dehqonchilikda aylanishi va agrokimyoning ekologik muammolarini o‘rganish, shuningdek mineral va mahalliy o‘g‘itlarning turi va xossalari, tuproq va o‘simlikni kimyoviy tashxis asosida aniqlash, asosiy ekinlarni o‘g‘itlashni, o‘g‘itlarni saqlash, tashish, tuproqqa solish uchun tayyorlash kabilarni o‘rganish, ilmiy tadqiqotda modellashtirish va statistik yondashuv bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lishlari kerak.

**Muhokama:**

G‘allakorlarimiz mutaxassislar tavsiyasi hamda ilg‘orlar tajribasiga tayangan holda omilkorlik bilan ish yuritsalar, bunday murakkab iqlim sharoitida ham mo‘l hosil olishga muvaffaq bo‘ladilar, albatta. Ko‘p yillik tajribadan ma’lumki, hozirgidek noqulay ob-havo sharoitida ekinlarni mahalliy o‘g‘it bilan oziqlantirish yaxshi samara beradi. Chunki dalaga ko‘proq mahalliy o‘g‘it chiqarilsa, u tuproqning tabiiy namligini saqlab, ekinning suvga bo‘lgan talabini kamaytiradi.

Ekinlar hosildorligi tuproqqa solinadigan o‘g‘itlarning yalpi miqdori bilan emas, balki ularidan oqilona foydalanish hisobiga oshiriladi. Bu o‘rinda o‘g‘it qo‘llash tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Almashlab ekish sharoitida o‘g‘itlardan samarali foydalanishni tashkil qilish hamda ekinlaridan mo‘l va sifatli hosil olish uchun maqbul o‘g‘it turi, me’yori, qo‘llash muddatlarini belgilash,o‘g‘it qo‘llash tizimini ishlab chiqishda o‘simliklarning biologik xususiyatlari, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash, almashlab ekishni to‘g‘ri tashkil etish, agrokimyoviy xaritanomalardan unumli foydalanish, ilmiy tadqiqot muassasalari ma’lumotlari va ishlab chiqarish ilg‘orlari yutuqlarini uyg‘unlashtirishdan iborat.

**Xulosa:**

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mineral o‘g‘itlar asosan qishloq xo‘jaligida, hosildorlikni oshirish maqsadida ekinzorlariga solish uchun ishlatiladi. O‘g‘it

ishlatiladigan ikkinchi asosiy soha bu kimyo sanoatidir. Ayniqsa, natriy va kaliy tuzlari, masalan, CI, KC1 lar. Soda, xlorid kislota, potash, o‘yuvchi natriy, o‘yuvchi kaliy ishlab chiqarish uchun xomashyodir. Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> esa shisha, natriy sulfid, ftorid, kaliy va natriy dixromat, natriy fosfat ishlab chiqarishda xomashyo hisoblanadi.

Metallurgiya sohasida o‘g‘itlar rudalarni boyitishda, metallarni suyuqlantirishda, elektroliz yo‘li bilan metallar olishda, metall yuzasiga ishlov berishda, metall va qotishmalarni payvandlashda ishlatiladi. Ayniqsa, natriy sulfat shisha olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.** Rahmatullayev N.G`., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. “Kimyo o‘qitish metodikasi”, O’quv qo’llanma, Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2013
- 2.** M.N.Nabiev O‘g’itlarni kimyoviy va fizik-kimyoviy tadqiq qilish va ularni ishlab chiqarishning ratsional usullarini ishlab chiqish // Mineral o‘g’itlar kimyosi va texnologiyasi. - Toshkent, FAN, 2000. - S. 5-25.
- 3.** Petrishchev A.G. Mineral o‘g’itlar sanoatining SSSR oziq-ovqat dasturini amalga oshirishga qo’shgan hissasi // Qishloq xo’jaligida kimyo. - 2004. - № 6. - B.3-
- 4.** Ismatov I.Sh., Omonov H.T., Mahmudov Yu.G`., Kenjayev D.M., Qo`chqorov M.A., Xolmirzayev Z.J. Xolmatova D.B. Umumiy o`rta ta`lim mакtablarida kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari. “Yangi nashr” Toshkent-2016.
- 5.** V. N. Kochetkov Suyuq kompleks o‘g’itlar ishlab chiqarish - Moskva: Kimyo, 2012. - 240 p.

FOND BOZORIDA ISLOMIY QIMMATLI QOG’OZLAR  
RIVOJLANISHINING UMUMIY TAHLILI

*Ahmadjonov Abdulloh Ahadjon o’g’li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

*Telefon: +998(94)687 21 81*

*akhmadjonovabdullokh@gmail.com*

**Annotatsiya.** So‘nggi yillarda islom moliyaviy instrumentiga ko‘pgina davlatlarning qiziqishlari ortib bormoqda. Sukuk ana shunday instrumentlardan biri bo‘lib, bu qimmatli qog‘oz aksiya va obligatsiyalarning belgilarini o‘zida jamlagan. Xorijiy adabiyot va nashrlarda bu islom moliyaviy instrumenti “sukuk bonds” deb ta’riflansada, obligatsiyalarning qarz majburiyati xususiyatini o‘zida aks ettirmaydi. Maqolada, islom moliyaviy instrumenti sukuk qimmatli qog‘ozlarining bugungi holati o‘rganilgan. Sukuk – moliyaviy instrumentining xususiyatlari yoritilgan va obligatsiyalar bilan farqli va o‘xshashlik jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, sukuklar bozori va ular qiymati, yillar bo‘yicha o‘sish dinamikasi, davlatlar ulushlari tahlil qilingan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** islom moliyasi, islom moliyaviy instrumentlari, obligatsiya, fond bozori, emitent, emissiya, investor, sukuk obligatsiyalari, “yashil” obligatsiyalar

Islom moliyaviy instrumenti bo‘lgan sukuklar so‘nggi yillarda shiddat bilan rivojlanayotgan qimmatli qog‘ozlar turlaridan biri bo‘lib, investorlarni o‘ziga jalb qiladigan eng afzal jihatni shundaki, qimmatli qog‘ozning daromadliligi loyihaning daromadliligiga paralleldir.

Sukuk islom qimmatli qog‘ozi kapitalni jalb qilishning foizsiz instrumenti sifatida, bundan 30 yil avval paydo bo‘lgan bo‘lsada, bozorning rivojlanishi 2001-

yilga to‘g‘ri keladi. Dastlabki sukuk Malayziyada 1990-yil emissiya qilindi<sup>1</sup> va orada ancha yillik tanaffuzdan so‘ng 2001-yilda sukuk qimmatli qog‘ozlari faol muomilaga chiqarila boshlandi. Bugungi kunga kelib esa sukuk-moliyaviy instrumenti o‘rta va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish va ulkan investorlar bazasini yaratishning muqobil vositasi sifatida hayotiyligini isbotladi.

Sukuk – arabchada qonuniy hujjat, akt va sertifikat degan ma’noni bildiradi va u ma’lum bir loyihaning moddiy aktivlari, ko‘rsatilgan xizmatlariga egalik huquqini ya’ni aktivlardagi tegishli ulush qiymatini tasdiqlovchi investitsion sertifikat sifatida qaraladi. Bizga ma’lumki, islam qonunlarida foizlardan olinadigan daromadlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, sukuklarning investitsion tamoyillari foizlarni hisoblash va to‘lashni taqiqlaydi. Bunda qimmatli qog‘ozning daromadlilik darajasi loyihalarning daromadliligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Shuning uchun sukuk –bu moliyalashtirilgan loyihadagi ulushni aks ettiradi.

So‘ngi yillarda sukuk- islam instrumentidan foydalanishning ahamiyati ortib borayapti. Sukuk bozori jadal rivojlanyapti. Investorlar va emitentlarning ushbu sohadagi yangi loyihalarni amalga oshirishga qiziqishlari ortmoqda.

Obligatsiyalar o‘zining egasiga oldindan belgilangan muddat ichida foizlar ko‘rinishida daromad olish imkonini bersa, “sukuk”lar o‘z egasiga ana shu qimmatli qog‘ozni ta‘minlovchi aktivlardan olinadigan foydadan ulush ko‘rinishida daromad olib keladi. Sukuk- bu suveren va korporatsiyalar tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan va odatdagи obligatsiyalar bilan o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatadigan investitsiya sertifikatlari. Obligatsiyalarga o‘xshash sukukning ham to‘lov muddati bor va sukuk egalari sertifikat muddati davomida doimiy daromad oladilar<sup>2</sup>.

Obligatsiyalar bilan sukuklarning farqli jihatlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Obligatsiya qarz majburiyatini bildirsa, sukuk aktivga qisman egalik qilish huquqini beradi.

---

<sup>1</sup> Abrorov Sirojiddin. The importance of sukuk in the development of economy: as an example of its impact on the income of the malaysian population. Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 2, 2020

<sup>2</sup> Charilaos Mertzanis. The absorption of financial services in an Islamic environment // Journal of Economic Behavior & Organization Volume 132, Supplement, December 2016, Page 218

2. Obligatsiyalar narxi emitentning kredit qobiliyatiga asoslangan bo‘lsa, suukuning narxi esa asosiy aktivning qiymatidan kelib chiqadi.

3. Aktivlar qiymati oshganda sukuk qiymati ham oshadi. Obligatsiyalardan olinadigan foyda qat’iy belgilangan foizlarda aks ettiriladi.

4. Sukukni sotganingizda, ularni qo‘llab-quvvatlovchi mol-mulkka egalik huquqini sotasiz. Obligatsiyalarni sotish - bu qarzlarni sotish demakdir.

Sukuk instrumentining hususiyatlari quyidagilardan iborat:


1. Sukuk obligatsiyalari – o‘rta va uzoq muddatli moliyaviy instrument hisoblanadi.

2. U xalqaro reyting agentliklarining ro‘yxatlari va reytinglariga kiritilgan bo‘lib, bu investorlar uchun risklilik darajasini baholashda yordam beradi.

3. Investitsiya davrida muntazam daromad oqimlari, kapital narxini oshirish imkoniyati mavjud.

4. Sukuklarning ba’zi turlarini belgilangan muddatdan oldin ikkilamchi bozorda sotish mumkin emas.

Islom moliya institutlarining buxgalteriya hisobi va auditorlik tashkilotlari (AAOIFI) tomonidan sukuklarning 14 turi tan olingan bo‘lib, ular ichida “sukuk-ijara” turi keng tarqalgan. Sukukning ijara turi o‘z egalariga mulkka egalik qilish huquqini beruvchi erkin muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlardir. Bu turdagi moliyaviy instrumentning ikkilamchi bozorda erkin aylanishi ularni yanada ommalashishiga xizmat qildi.



**2.1-rasm. 2001-2020 yillar davomida dunyo miqyosida sukuklarning chiqarilishi, mlrd AQSH dollarida<sup>3</sup>**

<sup>3</sup> IIFM. (2021). IIFM Annual Sukuk Report. Kuala Lumpur, Malaysia: International Islamic Financial Market. [www.iifm.net/IIFM-Sukuk-Report-9th-Edition.pdf](http://www.iifm.net/IIFM-Sukuk-Report-9th-Edition.pdf) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Xalqaro Islom Moliya Bozori (IIFM) yillik hisobotlariga ko‘ra(2.1-rasm), global sukuk emissiyasi 2001-2008 yilarda jami 141.3 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan bo’lsa, 2009-yildan boshlab 37.9 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan. Faqatgina 2015-yilda 2014-yilga nisbatan 67.8 mlrd AQSh dollarga kam sukuk emissiya qilingan. 2019-yil 145.7 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi va o‘sish darajasi 2018-yilga nisbatan 18.32 foizga oshganini ko’rsatdi. 2020-yil yakunlari bo‘yicha esa sukukning birlamchi bozorga chiqarilishi 174.6 milliard AQSh dollariga teng bo‘ldi va 2019-yilga nisbatan 16.5 foizga oshdi<sup>4</sup>. Yuqoridagi rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘nggi yigirma yil ichida sukuklar bozori o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2020-yil eng yuqori darajani ko’rsatdi. Shu yillar oralig’ida emissiya qilinga sukuk miqdori 1.42 trillion AQSh dollarini tashkil qilingan.

Quyidagi 2.2-rasmda Uzoq va qisqa muddatli sukuk qimmatli qog’ozining o‘sish dinamikasini ko’rishimiz mumkin. 2001-2008 yillar oralig’ida uzoq muddatli sukuklarni qiymati 114.4 mlrd AQSh dollarni, qisqa muddatli sukuklar qiymati esa 26.9 mlrd AQSh dollarini tashkil qilganini ko’rishimiz mumkin. 2014-yilga kelib uzoq va qisqa muddatli sukuk qiymati bir biriga juda ham yaqin kelganini ko’rishimiz mumkin.

Quyidagi 2.2-rasmda ko’rsatilganidek, 2020 yilda qisqa muddatli sukuk emissiyasi hajmi va foiz ko’rinishida uzoq muddatli emissiyalardan ko’proqni tashkil qilganini ko’rishimiz mumkin, ya’ni qisqa muddatli emissiyalar uzoq muddatga nisbatan 44,50% ga oshgan.

---

<sup>4</sup> IIFM. (2021). IIFM Annual Sukuk Report. Kuala Lumpur, Malaysia: International Islamic Financial Market



**2.2-rasm. 2001-2020 yillar davomida dunyo miqyosida uzoq muddali va qisqa muddatli sukuklarning chiqarilishi, mlrd AQSH dollarida**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abrorov Sirojiddin. The importance of sukuk in the development of economy: as an example of its impact on the income of the malaysian population. Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 2, 2020
2. Charilaos Mertzanis. The absorption of financial services in an Islamic environment // Journal of Economic Behavior & Organization Volume 132, Supplement, December 2016, Pages 216-236
3. IIFM. (2021). IIFM Annual Sukuk Report. Kuala Lumpur, Malaysia: International Islamic Financial Market
4. IIFM. (2021). IIFM Annual Sukuk Report. Kuala Lumpur, Malaysia: International Islamic Financial Market. [www.iifm.net/IIFM-Sukuk-Report-9th-Edition.pdf](http://www.iifm.net/IIFM-Sukuk-Report-9th-Edition.pdf) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

## ONA TILI DARSLARIDA “SO`Z BIRIKMASI” MAVZUSINI O`RGATISH

*Sattarova Nilufar Sodiqjonovna*

*Farg‘ona viloyati Buvayda tumani, 8- umumiy o‘rta ta’lim maktabi,  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili darslarida “so‘z birikmasi” mavzusini o‘rgatish usullari va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘z birikmasi hodisalarini o‘quvchilarga tushuntirishda foydalanish mumkin bo‘lgan ilg‘or metodlar va grafik organayzerlar tavsiya etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Interfaol metodlarni, so‘z birikmasi, ta’lim-tarbiya, “Asalari galasi” metodi, teng va tobe bog‘lanish, test, asalari, Gushtasp , bahs- munozara.

Hozirgi zamon talabi ona tili o‘qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ma’lumki, yangilangan ona tili ta’limining mazmuni o‘quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g’ri bayon qilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Ta’limning innovatsion yo‘naliganligining eng muhim parametrlaridan biri o‘quvchilarni ta’lim jarayoni subyekti sifatida o‘z faoliyatining ijodkoriga aylanishini ta’minlashdir. Mazkur maqsadga erishish o‘z navbatida o‘quvchilarni guruhlarda,kichik guruhlarda va juftliklarda hamkorlikdagi ishlarini tashkil etishni talab etadi.

Har bir interfaol metod ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Interfaol metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma’lum darajada samaradorlikka erishishni ta’minlasa-da, biroq, ularning har biri ta’lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldarlikni ta’minalash bo‘yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o‘qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Interfaol metodlarni qo’llashda ta’lim oluvchilarining yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darjasи, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Bu o‘qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo‘lishni taqozo etadi.

“So‘z birikmasi” mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishda quyidagi ta’lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

*“Bahs-munozara” metodi.* Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig‘i va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og‘zaki bahs bo‘lib, o‘quvchi (talaba)larda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma’lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo’llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o‘quvchilarga oldindan ma’lum

Jarayon o‘qituvchi tomonidan olib boriladi

O‘quvchi o’zi yoki guruhi nomidan nazariy fikrlarini bayon qiladi

Bahsda masalaning yechimi bo‘yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi

Yechim bo‘yicha asosiy fikrni bayon etadigan o‘quvchiga 10 daqiqa, fikrlarni to‘ldiradigan o‘quvchiga 5 daqiqa vaqt beriladi

O‘qituvchi bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiradi

Yuqoridagi metod bo'yicha o'quvchilarga bahs-munozara uchun quyidagicha topshiriq berish mumkin:

So'z birikmasi uchun qanday so'zlar zarur? So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar qanday vositalar yordamida bog'lanadi ?

*Yechim:*

Mustaqil so'zlarning nutqda bog'lanishidan so'z birikmasi hosil bo'ladi. So'z birikmasi bo'lishi uchun:

- 1) kamida ikkita mustaqil so'z bo'lishi lozim;
- 2) bu so'zlar ma'no jihatdan mos bo'lishi kerak;
- 3) so'zlarning biri ikkinchisiga ergashishi, ya'ni tobelanishi zarur;
- 4) qo'shimcha va yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni bog'lashi kerak.
- 5) Kelishik va egalik qo'shimchalari hamda ko'makchilar (ohang ham) so'z birikmalari tarkibida so'zlarni bir- biriga bog'lashga xizmat qiladi

Izoh: 1) bir o'quvchiga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi;  
2) o'qituvchi o'quvchilarning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'quvchilarga quyidagi mashq va topshiriqlar to'plami taqdim etiladi:

60-mashq. Har bir qatordagi so'zlarni bir-biriga bog`lab so'z birikmalari tuzishni mashq qiling.

- 1) bormoq, maktab, sari, shahar, o'qimoq;
- 2) suv, buloq, tinchlik, maqtamoq;
- 3) o`zga, yurt, cho'l, gul;
- 4) tog`, chiqmoq, el, suyanch . 20-topshiriq. Matnni o'qing. Aytishlaricha, Gushtasp (Erondagi kayoniylar sulolasining beshinchi hukmdori) kunlardan birida o`z Vatanidan ayrilib, begona bir shaharga kelib qoldi. Uning yonida biror chaqa ham yo`q edi. Yeyishga narsa topolmay, och qoldi. Birovdan so`ray desa, izzat-nafsi yo`l qo`ymas edi. Uning yodiga yoshligi tushdi. U bolalik paytida maktabga borar

ekan, yo`l chetida joylashgan temirchi do`koni oldida biroz to`xtab, temirchilarning pichoq va bolta yasashlarini tomosha qilar edi va uning siridan bir muncha voqif bo`lib qolgan edi. Gushtasp ko`p o`ylab o`tirmay, temirchilarning oldiga bordi va ularga dedi:

- Ey birodarlar, temirchilik siridan ancha xabardorman, meni ham o`zlaringga sherik qilib olsalaringiz.

Temirchilar rozi bo`lishibdi. Gushtasp bir necha muddat ishlab, pul yig`di. So`ng Vataniga qaytib bordi. U martabaga erishgan paytida barcha yosh-u qarini kasb va hunar o`rganishga da`vat qildi. Bolalarni kunning avvalida o`qitib, ikkinchi qismida hunar o`rgatishga farmon berdi.

21- topshiriq. Birinchi guruh bog`lanishdagi tobe va hokim so`zlarni aniqlang.

22- topshiriq. Tobe so`z hokim so`zga nima vositasida bog`lanishi asosida ularni uch guruhga ajrating:

- 1) qo`sishmchalar yordamida bog`lanish;
- 2) ko`makchilar yordamida bog`lanish;
- 3) qo`sishmcha va ko`makchilarsiz bog`lanish.

*“Asalari galasi” metodi.* “Asalari galasi” metodi gapda so`zlarning bog`lanish usullari bo`yicha tanlangan matnning auditoriyada umumiy yoki kichik guruhlarda alohida tahlil qilinishiga yordam beradi. Metodni qo`llashda kichik guruhlarga beriladigan tahlil uchun gaplar bir xil yoki turlicha bo`lishi mumkin. Guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natija barchaga ma'lum qilinadi. Mashg`ulot yakunida gap tahlilining eng maqbul yechimi tanlab olinadi.

Mashg`ulot jarayonida metodni qo`llashda quyidagicha yo`l tutiladi:

1. Gap tarkibidagi tobe bog`lanishlar sonini aniqlang

Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurib bitirishni niyat qilibdi.

2. O`quvchilar kichik guruhlarga bo`linadi
3. Kichik guruhlarga umumiy topshiriq beriladi

4. Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi (maksimal vaqt 10 daqiqa)
5. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlar o’z tahlillarini namoyish qiladilar
6. Eng to’g’ri tahlilni tanlab olib, o’qituvchi ishtirokchilarni rag’batlantiradi  
Yuqoridagi topshiriq bo'yicha maqbul tahlil tartibi:

Topshiriq: Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurib bitirishni niyat qilibdi gapidagi tobe bog’lanishlar sonini aniqlang

Tahlil tartibi:

1. tez muddatda
2. dunyo qoyil qoladigan
3. qoyil qoladigan madrasa
4. madrasa qurib bitirishni
5. qurib bitirishni niyat qilibdi
6. bir kuni niyat qilibdi
7. tez muddatda qurib bitirishni

*“Test” texnologiyasi.* “Test” (inglizcha “sinov”, “tekshirish”) texnologiyasi shaxsning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyati, ko’nikma va malakalarini baholashga xizmat qiladi. Texnologiya o’quvchi (talaba)lar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qaydarajada o’zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

O’quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagicha test taqdim qilish mumkin: 1 So’z birikmasi berilgan qatorni toping.

A)gapirib bermoq B) mazmunli yashamoq

C) tashrif buyurmoq D) holdan toymoq

2. Kechasi tiniq osmonda yulduzlar charaqlaydi. Ushbu gapdagi so’z birikmalar miqdori va birikish usullarini toping.

A) 3ta; 2ta bitishuv, 1 ta boshqaruv B)4ta; 3ta bitishuv 1ta boshqaruv

C) 3ta; 1ta bitishuv, 2ta boshqaruv D) 2ta; 1ta bitishuv, 1ta boshqaruv

3. Qaysi javobda bitishuv berilmagan?

A) chiroyli gullar B) choynakdan kattaroq C) yaxshi gapirmoq D) murabbiy

mehribon

4. Gapning qaysi bo’lagi boshqa bo’lakka tobe bog’lanmaydi?

A) ega B) kesim C) aniqlovchi D) ega va kesim

5. Ot kesim berilgan gapni toping

A) Vatanimizni chin dildan sevamiz B) Bu-litsey

C)mehnat qilgan rohatini ko’radi D) men darsga kechikdim.

Xulosa qilib aytishimiz miz mumkinki, darslarda bundan tashqari, klaster, FSMU, BBB kabi metodlardan ham foydalansa maqsadga muvofiq bo`ladi. Darslarni bunday tashkil etish o’quvchilarining darsga qiziqishini yanada kuchaytirib, ularning faolligini oshiradi. Darslarda o’rinsiz zerikishlarning oldini oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev F. So’zlar o’zaro qanday bog’lanadi. – T. : Fan, 1978. -75 b.
2. Abdurahmonov F. , Sulaymonov A. , Xoliyorov X. , Omonturdiyev J. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Sintaksis. – T. : O’qituvchi, 1979. – 208 b.
3. Borovkov A. K. , G’ulomov A. , Ma“murov Z. , Shermuhammedov T. O’zbek tili grammatikasi. II qism. Sintaksis. – T. : O’zdavnashr, 1956. – 132
4. Ishmatov Q. Umumta’lim fanlarda o’qitish metodi. O’quv qo’llanma. Namangan, 2006
5. Umumta’lim maktablari uchun 8-sinf ona tili darsligi, T. : Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019

“SADDIY ISKANDARIY” DOSTONIDA QO’LLANILGAN AYRIM  
TOPONIMLARNING TAHLILI

*Ro'zimurodova Norbibi - ilmiy tadqiqotchi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dostonni til xususiyatlari, ayrim toponimlar tahlilga tortilgan. Toponimlarning kelib chiqishi yoritilgan.

**Kalit so'z:** Estetik qarashlar, lug'atlar, toponim tarixiga nazar.

**Annotation** Some findings of the epic language features in the article subjekt to analysis. The praturess of toponyms is covered.

**Keyword:** Aesthetic views dictionaries, toponym tariciga nazr.

**Аннотация:** В данной статье составлена таблица языковых особенностей эпоса.

**Ключевое слово:** Эстетические взгляды словари, история топонимов.

Insoniyat vujudga kelibdiki uni yashashi uchun ayrim ehtiyojlar paydo bo'ladi. Anashunday ehtiyijlardan muhimi sanalgan nom, isimlar ham insonga zaruriy vositadir. Odamlar uchun o'z nomidan tashqari, yashashi uchun muhim vositalardan sanalgan joylar, anhor-u daryolar, tog'lar, cho'qqilar va vodiylarga ham nom qo'yish zarurati paydo bo'ladi. Shularni inobatga olib ayrim joy nomlari va ularning kelib chiqish tarixi vijudga keladi.

Natijada, bir umumiy nom bilan joy nomlarini o'rganadigan ilm-toponimika paydo bo'ldi.

Toponimika so'zi yunon tilidan tarjima qilinganda “topos- joy”, “nomes-nom”, ya'ni joy nomi deb yuritiladi.

Dastavval, joy nomlari oddiy turdosh otlardan tashkil topgan bo'lib, uni xalq o'zining ishlatilish doirasiga qarab nomlagan. Keyinchalik, bu so'zlar atoqli otlarga ya'ni maxsus joylarga atab qo'yilgan nomlarga aylangan.

Mumtoz adabiyotimizni benazir durdonalaridan biri bo'lgan”Saddiy Iskandariy “ mutola qilsakjoy nomlarini ko'plab uchratamiz. Tarixiy joy nomlari asarning til xususiyatini o'rganish bilan birga geografik ahamiyatlarni ham kasb etadi. Asarlarga uchraydigan ayrim geografik joy nomlari shu joyda qanday xalq, urug', qabila yashaganidan dalolat beradi.

Alisher Navoiyni o'zbek tili va adabiyotining asoschisi bo'lishi bilan birga, qadimiy qadriyatlarimizni keyingi avlodga yetkazuvchi qomusiy olim desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, alloma asarlarini o'qib o'rganish natijasida xalqimiz tarixini va geografik nomlarni-toponimlar yordam beradi.

“Saddiy Iskandariy” dostonida toponimlarni, ya'ni tarixiy toponimlarni ham uchratamiz;

Masalan:

Jahon ichra seh bo'lмаган yo'q uchun,  
Bilur olam ahli, nekim ahli Rum.

[“Saddiy Iskandariy” 99-bet]

Bu baytda ishlatilgan Rum so'zi, Rum mamlakatining tarixiy joy nomidir.

Rum - qadimda ayrim sharq mamalakatlarida Rimning, keyinchalik Rim imperiysining nomi.

[O'z ME birinchi jid T-T-2000]

“Saddiy Iskandariy” dostonida uchraydigan keyingi baytda ham ahamiyat qaratsak. Bu baytda shoir to'rtta joy nomini keltiradi. Quyidagi toponimlarning kelib ciqishi,til xususiyatlari, geografik joylashuvi xususida fikr yuritamiz:

Olib mulki Xorazm-u Kirmong'ach,  
Yana Qoshg'ardin Sipongacha.

[“Saddiy Iskandariy” 177 bet]

1.Xorazm-(-apo'za)

Amudaryo sohillari markazida ega bo'lgan O'rta Osiyo qadimgi mintaqasi Xorazm toponimikasini kelib chiqish tarixini tahlil qilsak:

“Avesto” kitobifa Xvorezm, qadimiy forsiylar Xvarozm deb keltirilgan. Arablarda uchraydigan ayrim manbalarda Xvarazm deb talaffuz qilinib kelingan. Fors-tojik tillarida esa Xorazm so'zi “ Xu-yaxshi, ma'qul, Var (varo) - devor, qal'a, Zm (zim)-zamin” degan ma'nolarni anglatgan.

Bir so'z bilan aytganda “Xorazm” toponimi, xalq orasida ma'lum bo'lган “ma'qul yer, yaxshi zamin”degan ma'nolarni ifodalaydi:

2. Kirmon ( Kemon ) Eronning janubiy sharqidagi shahar Kirmon ostonining ma'muriy markazi.

[O'z ME 1-jild Toshkent -2000-yil]

3. Qoshg'ar yoki Koshg'ar ( ) (Xitoy xalq manbalarida Koshi, Koshiger) - deb aytilgan. Xitoy xalq Respublikasining g'arbiy qismidagi shahar.

Mazkur toponim “qosh toshi” (nefrit) “koni” degan ma'noni anglatadi.

4. Sipohon- 1) Isfahon shahri Eronda joylashgan. 2) Musiqa fanidagi kuyni nomi Mockva 1969.

[ “Farhangi zaboni Tojiki -2-jild 244-bet]

Isfahon shahrini xalqona ikkinchi nomi A. Navoiy dostonida mahorat bilan qo'llagan.

Dostonda bunday toponimlarni tez-tez uchratamiz. Tarixiy va qadimiy toponimlar bilan birga afsonaviy toponimlarni ham guvohi bo'lamic;

Biriga raqam bo'ldi Baytulharam,

Biri topdi Kashmir sori raqam.

Ataldi bir Misr-u Bag'dodga,

Yozildi biri mulki Navshotga.

[ “Saddiy Iskandariy” 187-bet]

Ushbu baytda tarixiy toponimlardan Kashmir, Misir, Bag'dod nomlari keltirilgan. Shu bilan birga qadimiy va afsonaviy joy nomlari hisoblangan Baytulharam va Navshod nomlari ham qo'llagan. Afsonaviy toponimlarni ma'no mohiyatiga diqqat qaratamiz:

1. Baytulharam- Ka'batuulohdagi- Makka shahrida joylashgan. (“Farhangi zaboni tojiki”-1-jild 135-bet Mockva 1969-yil)

Baytulharam toponimi afsonaviy joy nomi bo'lib, ko'pgina tarixiy manbalarda kaltirilgan.

2. Navshod- bu so'zni ikkita ma'nosi bor: 1) Afsonaviy shahar nomiki, unda yashaydigan xalq go'zallikka ma'lum- u mashhur edi. 2) Mumtoz adabiyotimizda mahbubani go'zalligiga kinoya qiladi.

(“ Farhangi zaboni tojiki” 1-jild 822-bet Mockva 1969-yil)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, A. Navoiy o'zigacha bo'lgan adabiy jarayonni chuqur o'rgangan. Asarlarida foydalangan har bir toponimni maromida yetkazgan holda ishlatgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mumtoz adabiyotimizda ishlatilgan toponimlar-joy nomlarini o'rganish, tilimiz tarixini, geografik hududlar tarixini o'rganishga katta yordam beradi. Tarixiy joy nomlarini yaxshi bilish, shu hududga qanday tilda so'zlayotgan xalq va shevalarni tahlil qilib, aniqlik kiritishga asos bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. “Saddiy Iskandariy”. “G'afur G'ulom nashriyoti” Toshkent 1990
2. O'zbekiston ME. Toshkent. 2000-yil.
3. “Farhangi zaboni tojiki” Mockva 1969-yil.

## TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
<b>1</b>	AL-HAKIM AT-TERMIZIYNING MOVAROUNNAHR TAFSIR ILMI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI	<b>4</b>
<b>2</b>	TEACHING PHRASEOLOGY CONDUCTING THEORY AND PRACTISE	<b>8</b>
<b>3</b>	THE ROLE OF PHRASEOLOGY IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH	<b>14</b>
<b>4</b>	INGLIZ TILIDA MODAL FE'LLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING O'ZBEK TILIDA BERILISHI	<b>20</b>
<b>5</b>	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH	<b>33</b>
<b>6</b>	BOSHLANG'ICH TA`LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH	<b>38</b>
<b>7</b>	BOSHLANG'ICH SINFLARDA XORIJY TILLARNI O`QITISH MUAMMOLARI	<b>42</b>
<b>8</b>	INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARINING TALABALAR TARBIYAVIY FAOLIYATGA KIRISHISHIDA TUTGAN O'RNI	<b>47</b>
<b>9</b>	THE NEED OF MEDIA EDUCATION AND THE IMPORTANCE OF CONTENT IN THE UZBEK CHILDREN AND YOUTH PRESS	<b>52</b>
<b>10</b>	PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF AUDITORY ABILITIES OF STUDENTS	<b>62</b>
<b>11</b>	PIRLS XALQARO TADQIQOTINING MAQSAD VA VAZIFALARI. NAZORAT TOPSHIRIQLARINI YARATISH VA ULA USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI	<b>67</b>
<b>12</b>	IMPORTANCE AND CLASSIFICATION OF INTERACTIVE METHODS	<b>76</b>
<b>13</b>	COMPOSITION AND PROPERTIES OF NAPHTHA THAT THE MAIN RAW MATERIAL OF THE PETROCHEMICAL INDUSTRY	<b>86</b>
<b>14</b>	PISA TADQIQOTIDA O'QUVCHILARNING MATEMATIKADAN O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH	<b>93</b>
<b>15</b>	TABIY TOLALAR TASNIFI VA ULARNING TURLARINI ANIQLASH	<b>97</b>
<b>16</b>	TARIX FANINI O'QITISHNING INNOVATSION METODLARI	<b>104</b>
<b>17</b>	ANALYSIS OF MODELS OF COMMUNICATIVE COMPETENCE	<b>108</b>
<b>18</b>	ONOMASIOLOGY AS A SCIENCE	<b>119</b>
<b>19</b>	THE IMPORTANCE OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING TERMINOLOGY	<b>123</b>
<b>20</b>	МИТОХОНДРИЯНИНГ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ ВА БАЖАРАДИГАН ВАЗИФАЛАРИ	<b>133</b>

<b>21</b>	АДАПТАЦИЯ ПЕРВОКЛАССНИКА К ШКОЛЕ: ВАЖНЫЙ ЭТАП В ЖИЗНИ КАЖДОГО РЕБЕНКА	<b>144</b>
<b>22</b>	НАМАНГАН ВИЛОЯТИДА СУФОРИЛАДИГАН ЕРЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ БАХОЛАШ	<b>147</b>
<b>23</b>	TALABALARNING TEKNOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTEGRATIV-DIFFERENTIAL YONDASHUV	<b>153</b>
<b>24</b>	TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI IQTISODIY JARAYONLARNI LOYIXALASH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH-NING PEDAGOGIK SHART – SHAROITLARI	<b>159</b>
<b>25</b>	MODERN METHODS OF TEETH HYPERSENSITIVITY TREATMENT IN DIFFERENT GROUPS OF INDIVIDUALS	<b>166</b>
<b>26</b>	COMPARATIVE STUDY OF LEXICAL AND GRAMMATICAL PECULIARITIES OF STATIC VERBS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	<b>171</b>
<b>27</b>	FORMATION OF FRIENDLY RELATIONS IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES FOR CHILDREN 6-7 YEARS OLD	<b>176</b>
<b>28</b>	YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” ASARINING O’RGANILISHI BO’YICHA QO’SIMCHA MA’LUMOTLAR	<b>182</b>
<b>29</b>	KASR HAQIDA TUSHUNCHА VA KASRLARNI O’QITISHDA YANGI INNOVATSİYALARDAN FOYDALANISH	<b>187</b>
<b>30</b>	JALOLIDDIN RUMIY MUHAMMAD AL - BALXIY QALBLARGA OTASH SOLGAN ALLOMA	<b>191</b>
<b>31</b>	MILLIY O’QUV DASTURI ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINFLARDA ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI FANINING O’QITILISHI	<b>195</b>
<b>32</b>	ASOSIY MINERAL O’G’ITLAR MAVZUSINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	<b>203</b>
<b>33</b>	FOND BOZORIDA ISLOMIY QIMMATLI QOG’OZLAR RIVOJLANISHINING UMUMIY TAHLILI	<b>207</b>
<b>34</b>	ONA TILI DARSLARIDA “SO’Z BIRIKMASI” MAVZUSINI O’RGATISH	<b>212</b>
<b>35</b>	“SADDIY ISKANDARIY” DOSTONIDA QO’LLANILGAN AYRIM TOPONIMLARNING TAHLILI	<b>218</b>

**Note!—Pedagogs || articles and numbers in the legal, medical, social, scientific journal, information in classes, information rights and the correct authorities are responsible for the accuracy of the authorities.**

**Editor in chief  
Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

**Executive Secretary  
Abdurahmonov Boburjon**

**Preparing for publishing  
Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li**